

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
Arab filologiyasi kafedrası

“MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISH
METODIKASI”
fanidan

MA’RUZALAR MATNI

Tuzuvchi: katta o‘qituvchi N.M.Orifxo‘jaev

TOSHKENT – 2009

Mavzu: Magistraturada ta'limni tashkil etish tartib-qoidalari

Darsning o'quv maqsadi: talabalarga magistraturada ta'limni tashkil etish tartib-qoidalari, uni tashkil etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar:

- 1) Magistr;
- 2) Davlat ta'lim standarti;
- 3) Malakaviy talablar;
- 4) Me'yoriy hujjatlar;
- 5) Kalendar-tematik plan;
- 6) Ilmiy tadqiqot ishi.

Asosiy savollar:

- 1) Magistrning amalga oshirishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari;
- 2) Magistrning nisbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar;
- 3) O'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar;
- 4) Ilmiy tadqiqot ishi va ilmiy-pedagogik faoliyatni qayd etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar.

Ma'lumki, 5220100 shifri bo'yicha filologiya (sharq tillari) bakalvriyat ta'lim yo'nalishi negizidagi magistratura mutahassisligi O'zbekiston uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutahassisliklari klassifikatoriga kiritilgan.

Bakalavr negizida o'qishning belgilangan me'yoriy muddati – 2 yil.

Akademik daraja 2 yil.

Magistr quyidagi faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin:

- tanlangan mutahassislik bo'yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy-pedagogik, boshqaruv va kasbiy faoliyat ko'rsatishga;

- magistrlik tayyorgarligiga mos mutahassislik bo'yicha aspiranturada oily o'quv yurtidan keyingi ta'limni olishga;
- mustaqil ilmiy izlanuvchanlik faoliyati bilan shug'ullanishga;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga tayyorlangan bo'lishi kerak.

Olgan iqtisoslik bo'yicha magistr oily va o'rta yurtlarida, o'rta maktablarda o'qituvchi bo'lib dars berishi, ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy muassasalarda kichik ilmiy hodim, ilmiy hodim, katta ilmiy hodim, yetakchi mutahassis sifatida yoki ularga tenglashtirilgan lavozimlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi, turli muassasalarda, idoralarda tarjimon, katta tarjimon, bo'lim boshlig'I, referent va ularga tenglashtirilgan lavozimlarda kasbiy faoliyat turlarini bajarishi mumkin.

Magistrlarning kasbiy tayyorligiga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar.

Magistr tanlagan mutahassisligi bo'yicha fan-texnika, texnologiya, iqtisodiyot va gumanitar bilimlarning zamonaviy yutuqlarini amalda tatbiq qilishga yo'nalgan kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi mutahassislik sohasida muammolarning ilmiy masalalaridan xabardor bo'lishi, o'z qarashlarini shakllantirishi va uni yechish yo'llarni topa olishi, bilimlar bazasini yarata olishi va undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalana olishi;

- ilmiy ijod va ilmiy faoliyati tashkil qila olishi, sohaning yetakchi metodologiyasini bilishi, tadqiqotlar metodikasini o'zlashtirgan bo'lishi, ilmiy natijalarni amalga tadbiq qila bilishi, hisobotlar tuzishi va ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanishi bo'yicha amaliy tavsiyalar tuza olishi;

- mehnatni tashkil qilishda zamonaviy elektron texnologiya vositalaridan erkin foydalana bilishi, jahon kommunikatsiya tizimidan kerakli ilmiy axborotlarni ola bilishi va axborot uzata bilishi, olingan ma'lumotlarni tanqidiy baholay olishi, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana bilish, ilmiy tadqiqotni va pedagogik ishlanmalarni zamonaviy modellashtirish malakasiga ega bo'lishi;

- bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmiy jamoalar mehnati natijalari monitoringini tashkil qila bilishi, ilmiy tashkilotning boshqaruv asoslaridan xabardor bo'lishi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikativ tizimlardan foydalanib o'qitish metodlarini egallagan bo'lishi kerak.

Kasbiy mahorat bo'yicha o'z bilimi va ko'nikmasini egallagan lavozimida mustaqil faoliyat talablariga javob berishi kerak.

O'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar

Magistratura yo'nalishida ham ta'lim jarayoni Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan Namunaviy o'quv dasturlari asosida olib boriladi. Unda o'qitiladigan barcha o'quv fanlariga ajratilgan soatlar ko'rsatilgan bo'lib, ularning miqdori 1 o'quv semestri davomida dars jarayoni kechadigan haftalar sonidan va o'quv fanining xususiyatidan kelib chiqadi.

Namunaviy dastur asosida ishchi reja ishlab chiqiladi, unda I semestr davomida o'tiladigan haftalik darslarning mavzulari, soatlari, darsning shakli, auditoriyadan tashqari bajariladigan vazifalar, nazorat shakllari, mavzular uchun beriladigan maksimal ballar hamda mustaqil ish uchun beriladigan maksimal ballar ko'rsatiladi.

Ishchi dasturi asosida esa, Namunaviy dastur bajarilishini nazorat qilish maqsadida kalendar tematik reja tuziladi. Kalendar tematik rejada kundalik mashg'ulot turlari, o'tiladigan darslarning mavzulari, soatlar, dars soatlarining bajarilgan sanasi ko'rsatiladi va uni tasdiqlovchi o'qituvchining imzosi qo'yiladi. Kalendar tematik reja kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Kalendar tematik reja oxiriga o'quv fanini olib boruvchi o'qituvchining imzosi qo'yiladi.

Dars jadvali avgust oxirida dekanatda tuzilgan navbatdagi o'quv yilining I semestri uchun haftalik dars jadvali kafedra imkoniyatlari bilan muvofiqlashtiriladi va jadval dekanatda va kafedralarda osib qo'yiladi. Darslar bilan bir vaqtda ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik ishga kunlar ajratiladi.

Bundan tashqari kafedrada Magistratura ta'limiga jalb etilgan professor o'qituvchilarga 50 soatlik o'quv yuklamasi asosida magistrantlar taqsimlanadi va

har bir magistrantga rahbar yangi tuzilgan grafikka muvofiq ular bilan haftalik ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik ishlar yuzasidan mashg'ulotlar boshlaydi.

Magistr o'zining ilmiy faoliyatini mahsus kundalikka qayd etib boradi. Ilmiy faoliyat to'rt semestr davomida uzluksiz amalga oshirib boriladi.

Har bir semestrda ilmiy semestr uchun ajratilgan soatlar soni har hil bo'ladi.

Magistratura talabalarining ilmiy pedagogik ishi yuzasidan kundalik hisobotlari va namunaviy dasturlari ham bo'lib, ular ham to'rt semestr mobaynida uzluksiz ravishda to'ldirib boriladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini qayd etayotganda magistr quyidagilarga e'tiborni qaratdi:

- ilmiy muammolarni belgilash, masala holatini obzor va tahlil qilishga;
- materiallarni tadqiq qilish uchun birlamchi ishlovdan o'tkazish, ularning natijalarini umumlashtirish va tahlil qilishga;
- ilmiy tadqiqotda zamonaviy texnik vositalarni qo'llashga;
- olmiy yechimlar variantlarini;
- ilmiy natijalar bo'yicha hulosalar va tavsiyalarni shakllantirishga.

Magistr ilmiy pedagogik ishlarni qayd etayotganda:

- yangi pedagogik va axborot taexnologiyalarni qo'llashga;
- talabalar bilimni reyting-nazorat qilish tizimini qo'llashga;
- talabalar mustaqil ishni tashkillashtirish, ularni o'quv-uslubiy ta'minlashga;
- uslubiy tavsiyalar tuzishga;
- talabalar o'quv jarayonini faollashtirish metodlarini qo'llashga;
- turli mashg'ulotlar: ma'ruza, laboratoriya ishlari, amaliy va seminar mashg'ulotlari va boshqa mashg'ulotlarni o'tkazishga;
- ma'ruzalar matni va mashg'ulotlar o'tkazish rejalarini tuzishga;
- talabalar bilimni nazorat qilishni rejalashtirish, tashkillashtirish va o'quv uslubiy ta'minlash; tarbiyaviy ishlarni olib borishga qaratilishi kerak.

Har bir ish nihoyasida ajratilgan soatdan % hisobida reyting bali qo'yib boriladi.

Nazorat savollari:

- 1) Magistrantlar qaysi davlat mauassasalarida faoliyat ko'rsatishlari mumkin?
- 2) Magistrning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar nimadan iborat?
- 3) O'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar nimalardan iborat?
- 4) Ilmiy tadqiqot ishi va ilmiy pedagogik faoliyat deganda nimalar tushuniladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Magistraturada o'quv jarayonini tashkil etishni ma'lum tartib va tizimga solib sharxlab bering.

Asosiy adabiyotlar:

- 1) "Oliy ta'lim" Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. T. 2004 y.
- 2) "Magistratura" ta'limini tashkil etishbo'yicha uslubiy qo'llanma. ToshD.Sh.I. T. 2008 y.
- 3) Davlat ta'lim standarti. T. 2002 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov, M.Tojiev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modeli. T.2009y.
2. N.Postalyuk. Tvorcheskiy stil deyatelnosti: pedogogicheskiy aspekt. Iz-vo Kazanskogo universiteta. 1989g.

Mavzu: Til materialini taqdim etishda audirovaniye mashqlarining ahamiyati

Dars o'quv maqsadi: Audirovaniye mashqlarining turlari va ularning til materiallari bilan ishlashdagi samaradorligi haqidagi malaka va ko'nikma hosil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. nutq faoliyat turlari, audirovaniye, yozuv, o'qish, grammatika.
2. analizatorlar , ba'zi sezgi a'zolari.
3. tinglab tushunish(idrok qilish) .
4. eshitish ,ko'rish, o'qish, axborot to'plash.
5. tilning tovush tizimi leksik,grammatik talaffuz ko'nikmalari.
6. eshituv idroki, so'zlarning tovush tizimini farqlash, mohiyatni anglash.

Asosiy savollar:

1. tinglab tushuninish nutq faoliyati turlaridan biri sifatida.
2. fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bajariladigan mashqlar.
3. leksik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bajariladigan mashqlar.
4. grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan mashqlar.

Ma'lumki, tinglab tushunish (avdirovaniye) nutq turlaridan biridir. Axborot nazariyasiga ko'ra tinglab tushunish tovush kanali olqali keladigan tovush kodini yechishdan iboratdir. Bu esa nutq faoliyatining mazkur turi aynan murakkab og'zaki retseptiv (idrok etib tushunish) ko'nikma demakdir.

Hozirgi zamon ruhshunosligi tinglab tushunishga barcha analizatorlar va barcha sezgi a'zolarining o'zaro murakkab aloqalikda va tafakkur bilan birgalikdagi o'ta murakkab faoliyati deb qaraydi.

Nutqni tinglab tushunish deganda ovozli nutq(gapirish) chog'ida quloq solish ,idrok etish va tushunish anglanadi. Umuman nutq deganda gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozuv tushuniladi.

Chet tili metodikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asrimizning 60-yillariga kelib, tinglab tushunish nutq faoliyatining turi sifatia atroflicha tadqiq etila boshlandi. Ma'lum bo'lishicha, tinglab tushunish qiyinroq kechadi. Odatda tinglab tushunishga intiladi, eshituvchi tinglaganini tushunmasligi ham mumkin. Eshitish qobiliyatiga molik shaxs muayyan axborotni tushunish maqsadida so'zlovchiga quloq soladi, ya'ni tinglash aniqrogi tinglab tushunish sodir bo'ladi. Eshitdingmi deganda tinglab tushunganlikni aniqlamoqchi bo'linadi. Xullas, "tinglab tushunish" iborasi o'zgalar nutqini(jonli tarzda yoki mehanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini tushunib yetishlik ma'nosini ifodalaydi.Tinglash va tushunish (idrok etishm fahmlash) vaqt e'tibori bilan bir paytda sodir bo'ladi. ,bu ikki hodisani faqatgiha ilmiy tahlil uchungina ajratiladi xolos.

Insin ma'naviy kamolotga ,odatda, eshitish, ko'rish(kuzatish) va qolaversa, o'qish tufayli erishadi. Axborot to'plamida uchala faoliyat orasida tinglab tushunish eng muhimdir. Qizig'i shundaki, falon tilda tinglab tushunasizmi?, degan savol berilmaydi, gapira olasizmi degan savolgina beriladi. Idrok aqlning o'lchovidir. Gapirish va tinglab tushunish og'zaki nutq demakdir.

Ona tilidagi nutqni tinglab tushunishda shakl va mazmun yaxlit idrok etiladi. , chet tilida ifoda vositasi (til material) va ifodalanish mazmuni(yaxlit ravishda idrok etiladi, chet tilida ifoda vositasi) uyg'unlashishi qiyinligi bilan kechadi. Mazmunni ilg'ash uchun leksik-grammatik xodisalarni yaxshi o'zlashtirgan, qisqacha aytganda tinglab tushunishning leksik va grammatik ko'nokmalari puxta tayyorlangan bo'lishi kerak. Bu o'rinda eng muhim jihatlardan biri o'rganilayotgan til tovush tizimini puxta egallash tilning tovush tomonini (tovush , tovish birikmalari va ohang) farqlay olish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lmog'I lozim. Demak, tinglab tushunishning leksik va Grammatik va talaffuz qilish ko'nikmalari shakllaninshi oqibatida mazkur nutq faoliyati turi bo'yicha malaka hosil qilinadi. Og'zaki matnni idrok etib tushunishda leksikni bilish umumiy mazmunni

payqashda , grammatikani egallash mazmunni aniq tafsilotlari bilan fahmlashda alohida- alohida ahamiyat kasb etadi. Tinglovchi va so'zlovchi qo'llaydigan til birliklariga muvofiq tushsa, tushunish osonlashadi. Bu o'z navbatida til tajribasi bilan bog'liq masaladir.

Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo'lib, umumiy eshituv idroki, so'zlarning tovush tonini fahmlash va mohiyatini anglash orqasida nutqdagi mazmun idrok etiladi va bilib olinadi va tushuniladi.

Tinglab tushunishni mukammal egallash unda malaka hosil qilish uchun o'rganilayotgan til tovush tizimi, grammatika ,leksika va boshqa jihatlarga oid mashqlarni bajarish samarali natijalar beradi. Quyida yuqorida zikr etilgan til aspentlariga doir mashqlar tavsiya etiladi.

I. Fonetik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bajariladigan mashqlar:

1. Quyidagi so'zlarni eshiting va ... tovushli so'zlarni eshitganingizda qo'lingizni ko'taring;
2. Jumlalarni eshiting va so'roq (tasdiq, inkor) gapni eshitganingizda qo'lingizni ko'taring;
3. Jumlani tinglang va unda nechta so'z borligini ayting;
4. Tovushlar qatorini tinglang, berilgan tovushlarni ajratib yozing;
5. Eshitilgan so'zlarni tovushlarga ajrating avval ularni talaffuz qilib ayting;
6. Eshitilgan so'zlardagi unli va undosh tovushlarini sonini aniqlang;
7. Eshitilgan so'zlardagi bog'inlar sonini aniqlang;
8. Jumlani tinglab, unda berilgan tovush necha marta uchrashlidini ayting;
9. Eshitgan so'zlaringizdagi cho'ziq(qisqa) unlilar sonini aniqlang;
10. Yozilgan so'zlar qatoridan eshitgan so'zlaringizni ajratib oling;
11. Jumlalarni eshitib, omonim va sinonimlar sonini aniqlang;
12. Aytilgan jumladagi so'larning sonini aniqlang;
13. So'zni talaffuzini eshiting, urg'uning o'rni va uning ma'no anglatuvchi ahamiyatini aniqlang;
14. Jaranglayotgan nutq oqimidagi pauza(tinish)ni qayd eting;
15. Diktor nutqidagi nuqsonni aniqlang;

16. Arab so'zlari ro'yxatida siz eshitgan qaysi so'zlar bor;
17. Jimlalani tinglang va nechta so'roq, inkor, va tasdiq gapni eshitganingizni ayting.

II. Grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bajariladigan mashqlar:

1. Jumlani tinglan va ega(kesim)ni ayting.;
2. Jumlalarni eshiting va ularning qaysi birida ish-harakat tugallanganligini ayting;
3. Jumlani tinglang va unda nechta gap bo'lagi borligini aniqlang;
4. Diktorning ketidan so'zlarni takrorlang;
5. Jumlalarni tinglan va ergash va bosh gaplarni ajratib ko'rsating;
6. Jumlalarni tinglan va har gal qisqartirilganda tushib qolayotgan unsurlar(bosh bo'lak yoki ikkinchi darjali bo'lak)ni ko'rsating. (jumlani qisqartirib boriladi);
7. Jimlani eshiting va u har gal takrorlanganda undagi tayanch qoidalarni sharhlang ;
8. Diktorga quloq soling va bayon qilingan yangi fikr va mulohazalarni yozib bering;
9. Aytilgan fikr va mulohazalarni takrorlang va magnitafondan eshitgan yangi mulohazalarni qo'shing;
10. Grammatik shakllar noto'g'ri talaffuz qilingan matnni(noto'g'ri tuslangan fe'llar, qo'shimlar va hokazo) tinglang va xatolarini toping.

III. Leksik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bajariladigan mashqlar:

1. Jumlani eshiting va yangi so'zlarni ma'nosini kontekstdan aniqlang;
2. Jumlalarni tinglang va notanish so'zlar bilan ifodalangan aniqlovchiga e'tibor bermay ularning ma'nosini tushunishga harakat qiling;
3. Jumlalardagi omonimlarni tinglang va ularning ma'nosini tushunishga harakat qiling;
4. Jumlalardagi sinonimlarni tinglang va ularning ma'nosini aytib bering;

5. Ko'p ma'noli so'zlar qo'llangan jummalarni tinglang va ulardagi o'ziga xos farqlarni aniqlang;
6. Yozilgan so'zlar orasidan jumlada eshitgan so'zlarni toping;
7. omonimlarni tinglang va ro'yxatdagi yozilgan so'zlar orasidan ona tiliga mos keladigan muqobil so'zlarni toping;
8. Kartochka yoki doskada chet tilida yozilgan jummalarni ma'nosiga to'g'ri keladigan jummalarni aniqlang;
9. Chet tilidagi jummalarni tinglang va ona tiliga tarjima qilishda yo'l qo'yilgan leksik xatolarni ko'rsating. (ona tilidagi jumlar kartochka yoki doskada bo'lishi mumkin;
10. Tez talaffuz qilingan jumlaning daftaringizga yozing . so'ngra uni to'g'ri ekanligini sekin o'qilgan variantida tekshirib ko'ring;
11. Diktor tomonidan tez talaffuz qilingan jumlaning og'zaki tarjima qiling. so'ngra uni to'g'ri ekanligini sekin o'qilgan variantida tekshirib ko'ring;
12. Yozilgan so'zlar orasidan diktor o'qigan jummalardagi sinonim va omonimlarni belgilang;
13. O'qilgan jummalardagi atoqli otlarni belgilang;
14. O'qilgan raqamlar (telefon, sanalar) ni yozib oling.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Audirovaniye nima?
2. Audirovaniyeni amalgam oshirishda qanday sezgi a'zolari ishtrok etadi?
3. "Nutq" nima?
4. Audirovaniye nutq faoliyati sifatida qachon paydo bo'ldi?
5. Axborot to'plashda qaysi faoliyat turi eng muhim hisoblanadi?
6. Tinglab tushunish necha bosqichli faoliyat?

Mustaqil ish topshiriqlari.

Audirovaniye mashqlarini monologik va dialogik nutqni rivojlantirishda qo'llash.(refaret)

Asosiy adabiyotlar:

1. E.A.Masliko; P.K.Babanenaya. Minsk 1992y.
2. J.Jamolov. “Chet tilini o’qitish metodikasi”.” O’qituvchi”. Toshkent. 1996y
3. F.Z.Zariyeva . Chet tilini o’qitish metodikasidan qo’llanma” ” O’qituvchi”. Toshkent.1986y

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov, M.Tojiev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.2009y.
2. N.Postalyuk. Tvorcheskiy stil deyatelnosti: pedagogicheskiy aspekt. Iz-vo Kazanskogo universiteta. 1989g.

**Mavzu: Talabalarga badiiy adabiyot va gazeta materiallarni taqdim etish
va ular bilan mustaqil ishni tashkil etish**

Dqrs o'quv maqsadi: Talabalarga badiiy adabiyot va gazeta materiallarini mustaqil o'qishni tashkil etish, uning turlari, materiallar bilan ishlashga doir rejalar tuzishni o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Mustaqil o'qish, mustaqil ish.
2. Noma'lum so'zlar bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish.
3. Mustaqil ish turlari.
4. Gazeta (matbuot tili).
5. Gazeta materiallaridagi so'zlar normativi.

Asosiy savollar:

1. Badiiy adabiyot ba gazeta materiallarini mustaqil o'qishni tashkil etish.
2. Mustaqil o'qish turlari.
3. Yangi sozlarni o'zlashtirish va mustahkamlash uchun o'tkaziladigan mashqlar.
4. Badiiy va gazeta materiallarini gapirib berishni osonlashtirish maqsadida tuziladigan rejalar.
5. Gazeta materiallarini taqdim etishning o'ziga xos jihatlari.

Ma'lumki, mustaqil o'qish mustaqil ish formalaridan biridir. Mustaqil ish yuritish o'z navbatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ham bo'lsa, oquv vazifalarini student tomonidan bevosita o'qituvchi ishtrokisiz amalgam oshirishdir. Bu ishlarni amalgam oshirishdan esa o'qituvchi mustaqil ravishda studentlarni darslikdan, lug'atdan va boshqa qo'llanmalardan foydalanishga o'rgatishi lozim.

Bir soʻz bilan aytganda mustaqil oʻqish studentlarning fikrlash qobiliyatini, bilimlari va nutq malakalarini rivojlantirishga yordam berishi va shuning uchun ham mustaqil ish yuzasidan ilib boriladigan barcha tadbirlar mana shu maqsadga qaratilgan boʻlishi kerak. Mustaqil oʻqishning asosiy maqsadi studentlarni dunyoqarashini oshirish, mamlakatda va xorijda boʻlib oʻtayotgan voqealarni bir-biriga solishtirish va .

Tili oʻrganilayotgan mamlakat bilan yaqindan tanishish va nihoyat tarjima qilinayotgan matndan kerakli maʼlumotlarni chiqarib olishdir.

Student biror bir matnni oʻqir ekan avvalambor u oʻz imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi va uning oʻzida qoniqish hosil boʻlishi lozim. Mustaqil oʻqish jarayonida studentga maʼlum bir qiyinchiliklar tugʻiladi. Bu ham boʻlsa oʻqilayotgan matnda uchraydigan talaygina nomaʼlum soʻzlar majmuasidir. Nomaʼlum soʻzlar bilan bogʻliq boʻlgan qiyinchiliklarni bartaraf etish, avvalamboroʻqilayotgan matndagi eng kerakli soʻzlarnin tanlab olish bilan bogʻliq boʻlgan metodik masalalarni hal etish va ushbu soʻzlarni maʼlum nutqqa oid mashqlar yordamida jadallashtirishdan iboratdir,

Maʼlumki oʻqish ikki xil boʻladi.

Mustaqil oʻqishning 1-turi : bu talaba tomonidan mustaqil ravishda oqituvchining ishtrokisiz tanlab olingan, ijtimoiy-siyosiy va badiiy harakterga ega boʻlgan materiallarni student tomonidan mustaqil ravishda tayyorlab, maʼlum miqdordagi soʻzlar normasiga asoslanib, sinov tariqasida oʻqituvchiga topshiriladigan matnlar tarjimasidan iboratdir.

2- turi: Butun guruh uchun oʻqituvchi tomonidan tanlab olingan sinf mashgʻulotlari bilan uygʻunlikdab studentlarning mustaqil ishlarini boshqarib va nazorat qilib borish uchun beriladigan hamda oʻquv programmasiga mos keladigan matnlarni student tomonidan tarjuma qilinishidir. Yuqorida zikr etilgan mustaqil ishning 2-tirini amalga oshirishda oʻqituvchi faol roʻl oʻynashi kerak. Uning studentlarga arab tilida badiiy adabiyotni oʻqishga qiziqish uygʻotish muhim omillardan biri hisoblanadi. Buning uchun oʻqituvchi studentlar uchun qiziqarli va Grammatik jihatdan nisbatan oson boʻlgan hamda iloji boricha kamroq lugʻatga

murojaat qilinadigan matnlarni tanlashi lozim. Badiiy matnni o'qish va tushunish samaradorligiga noaniq so'zlarni lug'atga murojaat etmasdan ilg'ab olish, uchun esa fe'l boblari, fe'llarning turlari, ularning tuslanishi, sifatlar, sifatdoshlarning yasalishi, aniq va majhul darajalarimasdarlari va ularning qoliplari kabi morfologiya va grammatikaga oid qoidalarni bilmoq kerak. Bundan tashqari matn ustida ishlayotganda uni harakatlar bilan to'g'ri oqish muhim omillardan biri hisoblanadi. Yangi so'zlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, aktiv so'z zapaslarini kengaytirish esa talaba tomonidan matn o'qilayotganda bajariladigan qator mashqlar sistemasi orqali erishiladi. Shuning uchun ham tilga oid mashqlarning ko'pchilik qismini studentlarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar tashkil qilishi kerak. Ilojo boricha yangi tanlab olingan matn uchun noma'lum so'zlarning soni (foizi) kamayib borishi kerak.

Ma'lumki, arab tilidagi sozlarning kopchiligini 3 o'zakli mfellar tashkil etadi. Arab tilidagi yangi so'zlar o'zgarmas morfologik model asosida old qo'shimchalar yoki qisqa va cho'ziq unlilar hamda undosh harflar qo'shilishi orqali yasaladi. Ushbu qoidani bilgan holda, bir so'z(fe'l) ma'nosini bila turib, kopgina boshqa yangi so'zlar ma'nosini anglab olish imkoniyati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida studentlarning lug'at boyligini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun yangi so'zlarni o'zlashtirish va mustahkamlash maqsadida quidagi mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir:

a) so'zlarning o'zagi va morfologik shaklini anglab, bir xil o'zakli so'zlar yasash;

b) matndagi bir xil o'zakli so'zlarni topib, ular uchun umumiy bo'lgan o'zakni aniqlash.

Bundan tashqari arab tilidagi so'zlarning semantic birligi va ko'p ma'noliligini hisobga olib, quidagi mashqlarni bajarish ham yaxshi samara beradi.

I. matndan umumiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar guruhini (sinonimlarini) topish.

II. Matnda uchragan barcha ko'pma'noli so'zlarni (omonimlar) topish.

So'zlarni o'rgatish, tadqiq etish va mustahkamlashga oid mashqlarni bajarishdan so'ng, matndagi tilga oid materiallardan foydalanib, o'qilgan matnni muhokama qilishga va qaytadan eshitishga o'tish mumkin. Bu ish turning asosiy maqsadi o'qilgan materiallardan amaliy foydalanishga qaratilgandir. Buni amalgam oshirish uchun, matnni gapirib berishni osonlashtirish maqsadida turli xil rejalar tuzish mumkin.

1. so'roq gaplar shaklidagi reja;
2. darak gaplar shaklida tuzilgan plan;
3. matnning umumiy mazmunini aks ettiruvchi (syujetli plan) va hokozolar, qisqacha refaratlar.

Mana shundan so'ng tekstni gapirib berishning turli formalaridan foydalanib, bevosita nutqqa oid mashqlarga o'tish mumkin. Bu matnlar quidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- I. plan bo'yicha tekstning umumiy ma'nosini tafsilotlarsiz gapirib berish;
- II. tekstni hikoya qilib berishni, turli holatlar , vaziyatlarga tafsilotlarni qo'shib kengaytirish;
- III. tekstdagi parchalardan foydalanib, ishtrok etayotgan shaxslarga xarakteristika berish;
- IV. ish-harakat, boqealar bo'lib o'tgan joy, va uning qachon bo'lib o'tganligini tavsiflab berish; kabilarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi mazkur matnlarni bajarish studentlarga og'zaki nutq malakasini rivojlantirishga yordam beradi badiiy adabiyotni o'qishda olgan bilim va ma'lumotlarni ozining nutq faoliyatida qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida zikr etib o'tilgan mustaqil o'qishni tashkil etish uchun qo'llanladigan mashqlarni bevosita gazeta materiallari uchun ham taqdim etish mumkin. Biroq, badiiy va ilmiy adabiyot tilidan farqli o'laroq gazeta tili o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gazeta materiallari turli toifadagi ko'p sonli o'quvchilarning ommasiga mo'ljallanganligi uchun eng yangi axborotlar qisqa vaqt ichida hammaga tushunarli shaklda lo'nda qilib yetkazib beriladi. Shuning uchun ham o'quvchi ommaviy gazetani o'qish va tushunish uchun ko'p vaqt ketkazmaydi. Gazeta

materiallari qisqa muddat ichida tayyorlanganligi uchun va ularga yetarli statistik ishlov berish imkoniyati bo'lmaganligi, ba'zi tematikalarning qayta-qayta takrorlanishi gazetadagi publisistik stilning soddalashuviga va gazetada ishlatiladigan so'z birliklarining kamayib ketishiga olib keladi. Yangi publisistik usul ma'lum bir andoza, qolipga tushib keladi. Mana shu publisistik andoza o'z navbatida gazeta tili uchun xarakterli bo'lgan bir turdagi so'z va iboralarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Yuqorida zikr etilgan va gazetaga xos bo'lgan uslublarni hisobga olish gazeta materiallarini tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Gazeta materiallarini o'qish studentning dunyoqarashlarini kengaytiradi. Yuz berayotgan voqealarni baholash va bir-biriga qarama-qarshi qo'yish va qiyoslashga o'rgatadi. Tili o'rganilayotgan mamlakatning ijtimoi-siyosiy hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'iladi

Gazeta bilan ishlayotganda o'qituvchi o'z oldiga amaliy maqsadni ham qo'yadi. Bu ham bo'lsa student arab tilida gazeta o'qish jarayonida arab tilidagi original(asl nusxadagi)tekstdan kerakli ma'lumotni olishga, ya'ni tarjimasiz tushunish malakasiga ega bo'ladi.

Gazetalarni o'qish studentlarni so'z boyligini oshirishga va mustahkamlashga hamda arab tili grammatikasini yanada mukammalroq egallashga yordam beradi.

O'qituvchi kerakli gazeta materiallarini tanlagandan so'ng, quyidagi bosqichdagi ishlarni amalgam oshiradi:

1. studentlarni tekst o'qilguniga qadar tekstning mazmuni bilan tushuntiradi(o'qituvchi tomonidan olib boriladigan so'zdan yoki kirish so'zdan iborat bo'ladi).

2. ayrim so'zlar, grammatik shakllar, so'z birikmalari, leksik va grammatik xarakterga ega bo'lgan qiyinchiliklarni tushuntiradi.

Yuqoridagi ishlar amalgam oshirilgandan so'ng, bevosita tekstni gapirib berishni osonlashtiradigan mashqlarni bajarishga o'tadi. Birinchi bosqich suhbat tarzida o'tadi. O'qituvchi studentlarga oldindan tayyorlangan savollarni beradi. Bu savollar ularni studentlarni tekst tematikasi bilan tanishtiradi. va keyinchalik uning ma'nosini tushunishga yordam yengillashtiradi. Bunday savollarni o'qituvchi muqaddima so'z bilan ham boshlashi mumkin. Muqaddima so'zida o'qituvchi

tekstning mazmunini ochib bermasdan , mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan faktlarni(voqealarni) ma'nosini tushuntiradi, tekstda zikr etilgan ba'zi davlat arboblari, yozuvchi olimlar va boshqa namoyondalar haqida qisqacha ma'lumot beradi. Buning uchun o'qituvchi muqaddima so'zi uchun jiddiy va mukammal tayyorlanishi kerak. O'qituvchi beradigan ma'lumotlar qiziqarli va albatta gazeta tekstidan olindigan ma'lumotlarga qiziqish uyg'otishi kerak. O'qituvchining ikkinchi amalga oshiradigan vazifasi leksik va grammatik xarakterga ega bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Biroq tekstning ma'nosini tushuntirishga qaratilgan mashqlar tarjimasiz tushunishning eng muhim bosqichidir. Bunga erishish uchun o'qituvchi quidagi vazifalarni beradi:

- a) tekstni qisqacha hikoya qilib berish(bir necha qisqa jumlar yordamida)
- b) qisqa yozma referat tayyorlash(tafsilotlarsiz)
- c) asl nusxasiga yaqinlashtirib, qisqartirib gapirib berish(ba'zi tafsilotlarni qo'shib).
- d) O'qilgan tekstga plan (xuddi yuqorida aytib o'tilganidek badiiy asarlarga tuzish orqali)
- e) Biz yuqorida ko'rib chiqqan badiiy va gazeta materiallarini mustaqil o'qish o'quv dasturining muhim bir tarkibiy qismini tashkil etmog'i lozim. Keyinchalik mazkur materiallar studentlar tomonidan ommaviy maqsadlarda devoriy gazetalar, slaydlar, ilmiy konferensiyalar, kurs va diplom ishlarida foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. mustaqil o'qishni o'rgatish uchun o'qituvchi qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?
2. mustaqil ish necha xil bo'ladi?
3. badiiy tekstni oqish va tushunish samaradorligi nimaga bog'liq?
4. yangi so'zlarni o'zlashtirish v mustahkamlash maqsadida qanday mashqlar bajariladi?
5. gazeta(matbuot) tilining badiiy adabiyot tilidan qanday farqi bor?

6. gazeta materiallarini tanlangandan keyin qanday bosdqi chdagi ishlar amalgam oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

H.Mayburovning “Chitaem i perevodim gazetu” nomli qo’llanmasidan matbuotga doir matnlardagi standart iboralar nng tarjima xususiyatlarini o’rganish.(refarat)

Asosiy adabiyotlar:

1. Nastolnaya kniga prepodovatelya inostrannogo yazika N.D. Baliko, Minsk 1992.
2. J. Jalolov “Chet tilini o’qitish metodikasi”.T. 1994y.
3. A.D.Farberman. Novaya pedagogicheskaya texnologiya. Tashkent . 2001g.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov, M.Tojiev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.2009y.
2. N.Postalyuk. Tvorcheskiy stil deyatelnosti: pedogogicheskiy aspekt. Iz-vo Kazanskogo universiteta. 1989g.

Mavzu: Arab matni ustida ishlash texnologiyasi

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga matn ustida ishlab, kerakli ma'lumotlarni tahlil va sintez qila olish ko'nikmalarini singdirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar

Innovasion jarayonlar, o'quv materialini tanlash, ma'lumot, o'qish, umumlashtirish, analitik o'qish, intensiv o'qish.

Asosiy savollar

1. Matnni o'qib, kerakli ma'lumotni ola bilish.
2. Matn ustida ishlaganda kerakli fikrlarni to'plash va tasniflash.
3. O'qish turlarining ma'lumot olishdagi ahamiyati.
4. Darslarni bosqichlarga bo'lish.
5. Darsni amalga oshirishda qo'llaniladigan mashqlar.

Arab matni ustida ishlash texnologiyasi

Bugungi kunda nihoyatda keng va tezkor axborotlar, innovasion jarayonlar avlodi bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda an'anaviy yondashuvni o'zgartirish taqozo etilmoqda. Dars jarayonida o'qituvchi – o'quvchi pozisiyalarini o'zgartirish, ya'ni o'qituvchining mutlaq hokimligidan voz kechish, o'quvchining mustaqil fikrlashga imkon berish, uni har bir mavzu yuzasidan beriladigan ma'lumotlarni o'zlashtirish, qiyoslash, tahlil qilish va tadbiq etish darajasiga yetkazishga qaratilgan usullarni ishlab chiqish kun talabiga aylangan. Ayniqsa til o'rgatiluvchi o'quv dargohlarida matnlarni o'qib o'rganish, ulardan kerakli ma'lumotlarni ola bilish va amalda tatbiq eta olish kabi uslubiy amallar o'quv jarayonida asosiy o'rinni egallaydi.

Har qanday darsning sifati birinchi o'rinda o'quv materialini to'g'ri tanlash va darsga to'g'ri maqsad qo'ya bilishdan iborat. Shuning uchun o'qituvchi o'zi o'tadigan darslarni to'g'ri rejalashtirishi, o'quvchilar esa dars hafta, oy va semestr oxirida nima bilishlari kerakligini tasavvur qila olishlari lozim.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan olib boriladigan ishlarining eng muhimlaridan biri yuqorida ta'kidlaganimizdek matn ustida ishlashdir.

Matnning o'z nima? degan savol tug'iladi.

Matn bu – ma'lumot olish ob'ektidir.

Turli yondashuv va maqsadga ko'ra turli yo'nalishdagi ma'lumot manbai olish (informatsiya olish) mumkin. Mashhur tilshunos olim I.A.Zimnyayaning fikri bo'yicha nutq faoliyatining predmeti fikr, uning mahsuli esa matn degan fikrni bildiradi. Matnda gapiruvchi va yozuvchining fikri mujassamlashgan bo'ladi. Ko'pincha chet tili darslarida matn bilan ishlash deganda matnni o'qib tarjima qilish va undagi grammatik hodisalarni o'rganish bilan cheklaniladi. Biroq bu maqsadga muvofiq bo'lgan metod emas. Matn ustida ishlash uchun kerakli fikrlarni to'plab ularni (tasniflash) saralash kerak bo'ladi. Buning uchun o'rganilayotgan mavzuga oid barcha fikrlar to'planadi. Fikrlarni to'plashning eng oson yo'li – fikrlar ro'yxati. Mavzu uchun fikrni doskaga yozayotgan kishiga aytib turiladi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Munozarani olib borayotgan (o'qituvchi yoki o'quvchi) mavzuni sharhlab, savol va muammolarni doskaga yozadi.

2. Uning o'zi bir yoki ikkita o'quvchidan o'z fikrlarini yozib berishlarini so'raydi va hokazo.

O'qish texnikasi: M S O' Yo U – bu nima?

M – ma'lumot

S – savollar

O' – o'qish

Yo – yozish

U – umumlashtirish

Ma'lumot (obzor) – qisqacha umumlashtiruvchi ma'lumot beriladi. Bunda matn yoki maqolaning sarlavhasi ko'rib chiqiladi. Maqolaning boshi yoki oxirida umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot bor yoki yo'qligiga e'tibor beriladi. Agar bo'lsa ma'lumotlar bir-biri bilan qo'shiladi, matn yoki maqola haqida umumiy

tasavvur olish uchun qisqacha xulosa o‘qib chiqiladi. Ma’lum qarorga kelinadi. Matnni o‘rganish kerakmi yoki yo‘qmi?

Savollar – nima uchun va qanday qilib, qachon matnni o‘qish kerak degan savol beriladi.

Bu matndagi ma’lumotdan foydalanish kerakmi, yo‘qmi. Maqolani o‘quvchi qay darajada o‘qishi kerak. Matnning hammasini ketma-ket o‘qish kerakmi yoki ma’lum bir ma’lumotni o‘qish kerakmi. Umumiy ma’lumot olish kerakmi yoki uni mayda-chuydalari bilan tushunish kerakmi.

O‘qish – matnni o‘qish esdan chiqarmaslik kerak. Chunki turli xil o‘qish turlari o‘quvchilarga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Masalan: **Analitik o‘qish** turli o‘quvchilarda grammatika va leksikaga oid bilimlardan foydalanish imkonini beradi. **Intensiv o‘qish**da matnning har bir arzimas jihatlari ham sharhlab boriladi. **Ekstensiv o‘qish**da matnning mayda-chuyda, ikir-chikirlarigacha e’tibor berilmaydi. Diqqat matnning mohiyatiga qaratilgan bo‘ladi.

Yozish – kerakli ma’lumotlarni o‘zingizga yozib olishingiz mumkin. Bunda so‘zlar, iboralar yoki alohida ma’lumotlar kartochkalarga yozib olinishi mumkin.

Umumlashtirish – natijalar guruh e’tiboriga taqdim etiladi.

Matnni tanlash - o‘quvchilarga qanday matn kerakligi aniqlab olinadi. Ular nimani ko‘proq bilishadi. Tanlangan matndagi ma’lumot nima uchun kerakligi aniqlanadi.

Ma’lumot yig‘ish – o‘quvchilar matnni o‘qiydilar va kerakli deb hisoblagan ma’lumotlarni yig‘adilar. O‘z natijalarini muhokama qiladilar.

Til ustida ishlash – o‘quvchilar maxsus (siyosiy, iqtisodiy va h.) terminlar bilan ishlaydilar. So‘z iboralarini kelgusida qo‘llashlari mumkin. Bundan tashqari butun guruh bilan matn uchun qo‘shimcha mashqlarni o‘ylab topadilar. Bu mashqlarni bajarayotganda qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi yordamga kelishi mumkin. Darsni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Muqaddima. O‘quvchilarni dastlabki bilimlariga tayanish.
2. Matnni tushunish. Kirishish (yuzaki, umumiy tarzda va batafsil tushunish).

3. Til ustida ishlash. Leksika, iboralar, grammatika va hokazo.
4. Informatsiyani uzatish. Muhokama qilish (munozara, rollarga bo‘lib o‘ynash, yozma ish).

Vazifalarni bajarayotganda guruhlariga bo‘linib ishlash katta ahamiyatga ega.

1. Individual ishlash. Matnni hech kimga halaqit bermay o‘qish.
2. Juft bo‘lib ishlash. Bunda o‘quvchi o‘zini ishonchliroq sezadi. Qilayotgan ishlarini bir-birlariniki bilan solishtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Guruh bo‘lib ishlash. Muhokama qilinayotgan mavzu bo‘yicha (munozara), bahslashish maqsadida 3 yoki 5 tadan talabalar guruhi tashkil etiladi. Ular juft bo‘lib ishlaydilar. Munozara so‘ngida natijalar yig‘ilib guruhda muhokama qilinadi va umumiy xulosaga kelinadi.

Darsni amalga oshirishda qo‘llaniladigan mashqlar

Mavzuga kirish. Muqaddima.

- Assotsiagrammalash;
- Diagramma, suratlar – matnni tushunishni osonlashtiruvchi.
- Chizilgan tayyor rasmlar (kollaj)
- Matnning rejasini tekshirish;
- Alohida so‘zlarni ro‘yxatga kiritish;
- Matn bo‘yicha o‘quvchilar nimani bilishlarini aniqlash;
- Yangi tuzilayotgan matnga oid jummalarni davom ettirish;
- Matn mazmuni bo‘yicha taxminlarni ifodalash;
- Mavzuga oid savollar tuzish;
- Matndagi ma’lum holatni muhokama qilish, ya’ni matnlar yoki maqolalarni o‘qishga arziydimi yoki yo‘qmi. Undagi ma’lumotlarning qimmatli yoki ikkinchi darajali ekanligiga qarab;
- Tayanch so‘z va iboralarni aniqlash;
- Matndagi ma’lumotlarni diagrammalardagi ma’lumotlar bilan solishtirish;
- Rasmlar yordamida va farazlar bilan matnning jiddiyligini ifodalash;
- Sarlavha va diagrammalar yordamida matnni o‘qishga tayyorlash.

O'qish: (og'zaki) umumiy tarzda tushunish

- taxminiy va farazlarni tekshirish: tanish narsalar nima edi?
- Tayanch iboralarni aniqlash, ularni bir tizimga solish. Matnning turli bo'laklariga sarlavha qo'yish;
- Ularga mos suratlarni topish;
- Matndagi turli bo'laklarga tayanch iboralarni berish;
- Matndagi raqamlarni tanlash qv o'zlashtirish;
- Birinchi va ikkinchi darajali ma'lumotlarni aniqlash va farqlash;
- Matnning ayrim bo'laklarini va umumiy tekstni umumlashtirish;
- Qisqacha izohlovchi matn tuzish;
- Asosiy matn bilan solishtirish.

Bundan tashqari til faoliyatining hamma turlari, hamda til materiallari – leksika, grammatika, talaffuzni o'rgatish borasidagi mashqlarni ko'pchilik biladi.

بيتنا

لنا في المدينة بيت كبير و مريح, يقع في حي هادىء, و حوله حديقة جميلة فيها زهور و اشجار. نزرع فيها كذلك بعض الخضار. في بيتنا طابقان, الطابق الاول فيه غرفة للطعام و غرفة للضيوف و المطبخ و الحمام و غرفة الخادمة. في الطابق الثانى ثلاث غرف للنوم و حمام. في غرفة الطعام مائدة كبيرة حولها كراسى مريحة و في زاوية الغرفة خزانة فيها اوان و صحنون و فناجين. نجتمع هنا ثلاث مرات في اليوم: للفقور و للغداء و للعشاء. احب بيتنا كثيرا و خاصة غرفة الضيوف انها غرفة كبيرة مفروشة بالسجاد الجميل و في صدر الغرفة جهاز تلفزيون و فيديو. احب بيتنا لانه واسع و مريح, و هو مجهز بالماء البارد و الساخن و فيه مكيف جديد. عندنا خادمة تهتم بترتيب البيت و نظافته, و تذهب صباحا الى السوق لشراء اللحم و الخبز و الفاكهة و جميع ما تحتاج اليه في المطبخ. و هي طبخة ماهرة, تحضر طعاما لذيذا جدا.

Yangi so'zlar	
Qulay	مريح
Tinch, osuda	هادىء
Ekmoq	زرع
Burchak	زاوية
Qiziqmoq	اهتم ب
Ehtiyoj sezmoq	احتاج الى

Ta'minlangan	مجهز
Sevmoq	احب
To'shalgan	مفروش
Tarelka	صحن (صحون)
Piyola, chashka	فنجان (فناجين)
Javon, shkaf	خزانة (خزائن)

Tayanch iboralar yordamida tekstni gapirib bering

- (1) بيت مريح
- (2) حديقة جميلة
- (3) مجهز ب
- (4) اجتمع للعشاء
- (5) زرع خضار
- (6) خضر طعاما
- (7) مفروش بالسجاد
- (8) زواية الغرفة
- (9) غرفة الخادمة
- (10) اهتم ب

Matn tarjimasi:

Bizning uyimiz

Shaharda bizni qulay va katta uyimiz bor. U tinch mahallada joylashgan va yonida chiroyli bog‘ bor, unda gullar va daraxtlar bor, shuningdek, unga ba’zi sabzavotlarni ekamiz. Uyimiz ikki qavatlidir. Birinchi qavatida ovqatlanish xonasi, mehmonxona, oshxona, hammom va xizmatchilar xonasi mavjud. Ikkinchi qavatda uxlash uchun 3 ta xona va hammom mavjud. Ovqatlanish xonasida katta xontaxta, uning atrofida qulay kursilar va xonaning burchagida shkaf, unda idishlar, tarelkalar, piyolalar bor. Bu yerda bir kunda 3 marta yig‘ilamiz, ya’ni nonushta, tushlik va kechki taom uchun. Uyimizni juda yaxshi ko‘raman, xususan mehmonxonani, u katta xonadir, u chiroyli gilam bilan qoplangan, xona o‘rtasida televizor va video apparatlari bor. Men uyimizni yaxshi ko‘raman, chunki u keng

va qulaydir. U ikkiq va sovuq suv bilan ta'minlangan va unda yangi kondisioner bor. Bizda xizmatchi bor. U uyning tartibi va tozaligiga qayg'uradi. Tongda u oshxona uchun kerakli barcha, go'sht, non, ho'l mevalar sotib olish uchun bozorga boradi. U mohir oshpazdir. U taomni juda lazzeatli tayyorlaydi.

اجيبوا على هذه الاسئلة باللغة العربية

اين يقع البيت و ماذا حوله؟

اية غرف تقع فى الطابق الاول؟ و فى الطابق الثانى؟

ماذا يوجد فى غرفة الطعام؟

لماذا يحب البطل غرفة الضيوف؟

ماذا تفعل الخادمة كل يوم؟

ترجموا الجمل التالية الى اللغة العربية

Quyidagi jummalarni arab tiliga tarjima qiling!

1. Ular sabzavotlarni o'z bog'lariga ekdilar.
2. Sizlar ovqatlanish uchun o'z xonangizga yig'ildinglar.
3. Sen o'z uyingni yaxshi ko'rasan, chunki u chiroyli va qulaydir.
4. Mehmonxona televizor, yangi kondisioner bilan ta'minlangan.
5. Xizmatchi uyning tartibi va tozaligiga qayg'uradi.
6. Har kuni sen o'z oila a'zolarining uchun ovqat tayyorlaysan.

1 فى غرفة الطعام جهاز تجتمع فيه اوان و صحنون و فناجين ما هو؟

خ	ز	ا	ن	ة
---	---	---	---	---

2 ما هي وجبة الطعام التي تتركب من ستة حروف اذا كتبت بال التعريف


ا	ل	ف	ط	و	ر
---	---	---	---	---	---

3 صاحب البيت يحب بيته لان البيت....

و	ا	س	ع
---	---	---	---

4 عندنا خادمة البيت و هي تطبخ طعاما لذيذا. لانها...

ط	ب	ا	خ	ة	م	ا	ه	ر	ة
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---



الصباح يستقبل وزير الخارجية الهولندي

المنامة – ا ف ب

افادت وكالة الانباء الكويتية ان امير الكويت الشيخ خابر الاحمد الصباح استقبل امس في الطائف وزير الخارجية الهولندي هانس فان دن بروك الذى يقوم حاليا بزيارة الى السعودية. و اضاف المصدر ان المحادثات تناولت فى شكل خاص الوضع فى الكويت و المنطقة بعد وقف الاعمال الحربية.

و فى الرياض التقى فان دن بروك والى العهد السعودى الامير عبد الله بن عبد العزيز و ذكر مصدر رسمى فى السعودية انه تحدث ايضا مع نظيره السعودى الامير سعود الفيصل و بحث معه سبل تعزيز التعاون الثنائى و مرحلة ما بعد الحرب فى الخليج.

Quyidagi berilgan savollarga arabcha javob bering.

1. Quvayt amiri kecha kimni qabul qildi?
2. Quvayt amiri va Gollandiya tashqi ishlar vaziri nimalar xususida muzokaralar olib bordilar?
3. VanDe Bruk Saudiyadagi ziyorati chog'ida kimlar bilan uchrashdi?
4. Van De Bruk o'zining saudiyalik hamkasbi bilan ham uchrashdimi?
5. Tashqi ishlar vaziri Amir Saud Al-Faysal bilan qanday masalalarni hal qildi?
6. Bosh vazir Kamol al-Januriy qanday qaror qabul qildi?
7. Doktor Abdul Xalim Nuruddin qachondan boshlab o'z mansabini egalladi?
8. Doktor Abdul Xalim Nuruddin necha yil bosh kotiblik lavozimini egalladi?

Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

ضع الكلمات اللازمة بدل النقاط:

- 1-افادت ... الانباء الكويتية ان امير الكويت استقبل وزير الخارجية الهولندي.
- 2-اضاف المصدر ان ... تناولت فى شكل خاص الوضع فى الكويت
- 3- فى الرياض التقى فان دن بروك ...العهد السعودى الامير عبد الله بن عبد العزيز
- 4- بحث معه ... تعزيز التعاون الثنائى
- 5- د. كمال الجنزورى رئيس الوزراء اصدر قرارا بتجديد ... د.عبد الحليم نور الدين امينا عاما للمجلس الاعلى.
- 6-قد اهدته الحكومة الفرنسية... الاستحقاق بدرجة ضابط بقرا ر من الرئيس شيراك

Berilgan birikmalarni to'ldiring va tarjima qiling.

املاً العبارات و ترجمها

1-..... الانباء الكويتية

2- وزير.....الهولندي

3-ولى.... السعودى

4- سبل التعاون الثنائى

5-اصدر.....

6-.....تجديد

7-....الاعلى للاثار

8-....الاستحقاق

Berilgan so'zlarni arabcha sharhlang.

اشرح المفردات التالية بالعربية

1. Qabul qilmoq.
2. Tashqi ishlar vaziri.
3. Axborot agentligi.
4. Harbiy harakatlar.
5. Qo'shimcha qilmoq.
6. Muzokara.
7. Vaziyat.
8. Mintaqadagi urush harakatlari to'xtatilgandan keyingi davr.
9. Ikki tomonlama hamkorlik.
10. Qaror qabul qilmoq.
11. Mustahkamlash.

Matn tarjimasi

As-Sabah Gollandiya tashqi ishlar vazirini qabul qildi.

Al-Manama – AFB

Quvayt axborot agentligining xabar berishicha, kecha Quvayt amiri shayx Jobir al-Ahmad as-Sabah Toifda hozirda Saudiyada ziyoratda bo'lgan (hozirda

Saudiyaga tashrif buyurgan) Gollandiya tashqi ishlar vaziri Gans Van Den Brukni qabul qildi.

(Siyosiy) manbalarning qo'shimcha qilishicha, muzokaralar umumiy tarzda Quvaytdagi va urush harakatlari to'xtaganidan keyin mintaqadagi vaziyatni ham o'z ichiga olgan. Ar-Riyodda Van Den Bruk Saudiya valiahdi amir Abdullo Ben Abdulaziz bilan uchrashdi. Saudiyadagi rasmiy manbalarning xabar berishicha u (Van Den Bruk) o'zining saudiyalik hamkasbi amir Saud Al-Faysal bilan ham muzokaralar olib bordi va u bilan ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash va ko'rfazdagi urushdan keyingi davr haqida bahs yuritdi.

Matnlarni tiklashga oid mashqlar

Nuqtalar o'rniga kerakli fe'llarni qo'ying.

ضع الافعال اللازمة مكان الفراغات

- 1- افادت وكالة الانباء الكويتية ان امير الكويت الشيخ جابر الاحمد الصباحامس فى الطائف وزير الخارجية الهولندى.
- 2- ان امير الكويت استقبل وزير الخارجية الهولندى الذى حاليا بزيارة الى السعودية.
- 3-و المحادثات.... شكل خاص الوضع فى الكويت و المنطقة بعد وقف الاعمال الحربية.
- 4- و فى الرياض....فان دن بروك و الى العهد السعودى الامير عبد الله بن عبد العزيز.
- 5-.... مع نظيره السعودى الامير سعود الفيصل
- 6- معه سبل تعزيز التعاون الثنائى و مرحلة ما بعد الحرب فى الخليج.
- 7-د.كمال الجنزورى رئيس الوزراء قرارا بتجديد تعيين عبد حليم نور الدين امينا عاما للمجلس الاعلى.
- 8-....الحكومة الفرنسية وسام الاستحقاق بدرجة ضابط بقرار من الرئيس شيراك.

Nuqtalar o'rniga kerakli sifatlarni qo'ying.

ضع الصفات اللازمة مكان الفراغات.


- 1- فى الرياض التقى فان دن بروك و لى العهد الامير عبد الله بن عبد العزيز.
- 2-ذكر مصدر فى السعودية انه تحدث مع نظيره....الامير سعود الفيصل.
- 3- بحث معه سبل تعزيز التعاون....
- 4-د.كمال الجنزورى رئيس الوزراء اصدر قرارا بتجديد تعيين دظليم نور الدين امينا للمجلس الاعلى.

5-قد اهدته الحكومة...وسام الاستحقاق بدرجة ضابط بقرار من الرئيس شيراك.

Tayanch iboralar yordamida tekstni gapirib bering.

- 1- استقبل
- 2- تناولت المحادثات
- 3- التقى فان دن بروك
- 4- بحث سبل تعزيز التعاون الثنائي
- 5- تحادث مع نظيره السعودي
- 6- اصدر قرارا
- 7- تجديد تعيين
- 8- امين عام للمجلس الاعلى للآثار

Klaster usulidan foydalanib matnni gapirib bering.



Yangi so‘z va iboralar

<i>O‘zbekcha</i>	<i>العربية</i>	№
Kutib olmoq, qabul qilmoq	استقبل	1
Xabar bermoq	افاد	2
Qo‘shimcha qilmoq	اضاف	3
Tashrif buyurmoq, ziyorat	قام بزيارة	4

qilmoq		
Vaziyat	وضع	5
Mansabi bo'yicha tengdoshi bo'lgan hamkasb	نظير	6
Mustahkamlash	تعزیز	7
Davr, jarayon	مرحلة	8
Taxt vorisi	ولى العهد	9
Axborot agentligi	وكالة الانباء	10
Muzokara	محادثة	11
Ikki yoqlama hamkorlik	تعاون ثنائى	12
Harbiy harakatlar	اعمال حربية	13
Muhokama qilmoq	بحث	14
Ko'rfaz	خليج	15
O'z ichiga olmoq, muhokama qilmoq	تناول	16
Uchrashmoq	التقى	17

Nazorat savol va topshiriqlar

1. Innovation jarayonlar deganda nimani tushunasiz?
2. Fikrlar to'plashning asosiy yo'li nima?
3. Analitik o'qish qanday bilimlarni olishga yordam beradi?
4. Ekstensiv o'qishda diqqat nimaga qaratiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

Sintetik o'qishning ma'lumot olishdagi ahamiyati.

Asosiy adabiyotlar:

1. "Oliy ta'lim" Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. T. 2004 y.
2. "Magistratura" ta'limini tashkil etishbo'yicha uslubiy qo'llanma. ToshD.Sh.I. T. 2008 y.

3. Davlat ta'lim standarti. T. 2002 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Lebedev V.V. Arabskaya grammatika. Bazoviy kurs na russkom i arabskom yazikax.
2. Musaev O. Arab tili asosiy qoidalari tizimi. T.: 2000 y.

Mavzu: Chet tili darsining namunaviy tahlilining loyihasi

Dars o‘quv maqsadi: Darsning tarbiyaviy qismlarga ajratish va ularni metodologik tahlil qilish usullarini o‘rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar.

1. Darsni maqsadi;
2. Darsni tarkibiy qismlari;
3. Darsning umumta’limiy maqsadi;
4. Darsning ta’limiy uslubiy vazifalari;
5. Muqaddima;
6. Tashkiliy qism.

Asosiy savollar.

1. Dars tahlilida metodologik yondashuv.
2. Darsni tarkibiy qismlarga ajratish.
3. Darsning maqsadini belgilash, tarbiyaviy, umumta’limiy maqsadlar, darsning tashkiliy qismi, yangi taqdim etiladigan o‘quv materialini tahlili qilish.
4. Sinfda amalga oshiriladigan ish turlarining tahlili.

Dars o‘quv maqsadi: Darsning tarkibiy qismlarga ajratish va ularni metodologik tahlil qilish usullarini o‘rgatish.

Ma’lumki, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p marta takrorlanadi.

Ushbu dasturning ikkinchi bosqichi – sifat bosqichi bo‘lib, bunda maqsad uzluksiz ta’lim jarayonining yangi zamonaviy usullaridan foydalanish, talabalarning amaliy ko‘nikmalarini tubdan yaxshilash va kengaytirishga qaratilgan.

Shunga muvofiq hozirgi kunda oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida dars o‘tish tartibi, darsning umumiy tarkibi va mohiyati bir muncha o‘zgardi.

Avvalombor, dars o'tilayotgan uslubiy va texnologik yondashuv diqqat-e'tiborga olinishi kerak bo'ladi. Bunda yangi pedagogik texnologiya o'quv maqsadlari kategoriyalari. (Bo'limning o'quv maqsadlari taksanomiyasi-bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez), talabaning faolligini oshirishga qaratilgan ko'plab usullarni (aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster, sikveyn mantiqiy testlar) qo'llanilishiga, bir so'z bilan aytganda interaktiv usullarning joriy etilishiga alohida e'tibor berish zarur.

Ta'lim jarayonida mudarrislar o'zaro darslarga kirganlarida, ochiq darslar o'tkazilganda o'z hamkasblarining darslarini tahlil qilishga to'g'ri keladi. Dars tahlili esa hamma vaqt ham ko'ngildagidek malakali va ilmiy-uslubiy jihatdan to'g'ri amalga oshirilmaydi. Chunki, ko'pchilik mudarrislarda bu borada yetarli darajada uslubiy malaka va salohiyat yetishmaydi. Vaholanki, yetarli tajriba va malakaga ega bo'lgan mudarrislar dars tahlilini uning barcha muhim jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshiradilar.

Dars tahlilida umumiy tarzda darsning maqsadi, tashkiliy daqiqalar, uy vazifasini tekshirish, yangi o'quv materialining taqdimoti, darsga uslubiy yondashuv, yangi mavzuning o'quvchilar tomonidan tushunib o'zlashtirilganlik darajasi kabi jihatlar qamrab olinadi.

Albatti, har bir darsda qo'yilgan maqsadga ko'ra, dars tarkibiy qismining ketma-ket kelish tartibi o'zgarishi mumkin, shuning uchun dars tahlilini darsga o'quvchi tomonidan qo'yilgan maqsadni belgilashdan boshlash kerak.

Dars jarayonini tahlil qilish uchun, uning quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Darsning ta'limiy-uslubiy vazifalari: muqaddima, o'tilgan o'quv materialini musiahkamlash, til materialini turli metodik uslublar bilan taqdim etish, o'tilgan mavzular bo'yicha yakuniy yozma ishlarni amalga oshirish.

2. O'quv materiallari mazmunini aks ettiruvchi elementlar: matn, og'zaki mavzular, mashqlar, metodik uslublar (priyomlar), til materiali.

3. Darsning turli vosita va materiallar bilan ta'minlanganligi:

Texnik vositalar, ko'rgazmali va didaktik materiallar.

4.Darsdan ko‘zlangan maqsadni belgilash:

Chet tilidagi nutq mahorati va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat; til aspektlari (talaffuz, leksika, grammatika)ni egallashga qaratilgan faoliyat, nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat va hokozo.

5.Darsning tarbiyaviy maqsadi:

Ahloqiy, estetik, mehnat tarbiyasi, madaniyatli shaxsni tarbiyalash, fikr yuritish va muomala madaniyati.

6.Darsning umumta’limiy maqsadi:

Chet tili orqali bilim orttirish, mamlakatshunoslikka oid bilim olish, lingvistik fikr yuritishni rivojlantirish.

7.Darsning maqsadi mavzuga, o‘quv dasturi va rejasiga muvofiqligi.

8.Sinf xonasining darsga tayyorligi

9. Sinfdagi ta’limiy muhit:

O‘quvchilar diqqat-e’tiborini chet tilida so‘zlashishga qaratish; tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida hikoya qiluvchi materiallardan foydalanish; til muhitini yaratish uchun boshqa vositalardan foydalanish.

10.Darsning tashkiliy qismi:

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan chet tilida suhbat olib borish; o‘qituvchining darsga tayyorgarlik haqidagi o‘quvchilarga beradigan savollari; o‘quvchilarga amaliy, tarbiyaviy, umum ta’limiy maqsadlarga erishish uchun yordam berishi; o‘quvchilar bilan yaxshi aloqa o‘rnatish; o‘quvchilar bilan qisqa suhbat o‘tqazish; sinfda ijodiy, amaliy va hayrixohlik muhitini yaratish uchun turli pedagogik va metodik uslublardan foydalanish.

11.Fonetikaga oid mashqlar: darsning asosiy amaliy maqsadiga erishish uchun yordam berish; o‘quvchilarni til materiali bilan ishlashga tayyorlash; fonetikaga oid masalalarni rivojlantirish.

12.Uy vazifasi: uy vazifasini darsda tekshirish, yangi o‘quv materiali ustida ishlayotganda uni nazorat qilib turish; uy ishining bajarilish sifati; o‘qituvchi tomonidan uy vazifasining qanday bajarilganligini sharhlash, kelgusi darsda avvalgi darsdagi kamchiliklarni tuzatish; uy vazifasini bajarish chog‘ida yuzaga

keladigan qiyinchiliklarni xisobga olish; odatda uchrashish mumkin bo'lgan xatolarni umumlashtirish; bu xatolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillarni tushintirish; xatolarni bartaraf qilishga yordam beradigan samarali uslublarni qo'llash; xatolarni to'g'rilash; uy tvazifasini tekshirayotganda xush muomala va do'stona muhitning hukm surishi.

13. Yangi materialning taqdimoti:

Yangi material taqdimotining shakillari; induktiv (yakkadan umumiyga borish, amaliyotdan qoida chiqarish) va deduktiv (qoidadan amaliyotga borish) uslublardan foydalanish; doskadan, texnik vosita va darslikdan materialdan foydalanish; tasviriy va boshqa hil ko'rgazmali qurollardan foydalanish; taqdim etilayotgan materialning qiyinligi va uni o'zlashtirish maqsadi; yangi til materialini tushinib va o'zlashtirishni nazorat qilish; yangi so'z birliklarining o'quvchilar tomonidan jumlar tarkibida qo'llanishi;

14. Yangi til materialnini o'zlashtirishni ta'minlash: nutq faoliyatining turli ko'rinishlari uchun nutqqa va tilga oid mashqlarni bajarish; texnik vositalar va tasviriy ko'rgazmali qurollarni tadbiq etish;

15. Tinglab tushinish (audirovanieni) o'rgatish: darsda qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan uslublar: berilgan auditekst bilan ishlashning metodik jihatdan asoslanganligi; magnitafondan foydalanish; tinglab eshitilayotgan materialdan unumli foydalanish, ko'rgazmali qurollardan foydalanish;

16. Gapirishni o'rgatish: nutq materiali, nutq vaziyatlari, namunaviy juft nutq, matnni (og'zaki yoki yozma) tanlash, ko'rgazmali qurol va texni vositalardan foydalanish; yakka va juft nutqni bayon qilishni boshqarish va o'quvchilarga yordam berish;

17. O'qitishni o'rgatish;

O'qilgan narsani tushinish mahorati va o'qish texnikasi malakalarini shakllantirish; matnlarni o'rganishning turli hil bosqichlarida xilma-xil uslublar, topshiriq va mashqlardan foydalanish; o'qilgan matnni tushunganlikni tekshirish uchun samarali metodik uslublardan foydalanish (masalan berilgan qator

m'alumotlardan tuzilgan savolga to'g'ri javob topish mashqi, trayanch so'zlari asosida kontekstni tiklash, abzaslarga sarlavha qo'yish va h.z) bajariladigan mashqlarning samaradorligi.

18.Yozuvni o'rgatish:

Ushbu nutq faoliyati turini amalga oshirishda qo'llaniladigan uslub va topshiriqlarning to'g'rili; ta'lim maqsadlariga muvofiq quyidagi ish turlarini amalga oshirish: - matnni yozma ravishda bayon qilish va gapirib berish, insho, xat yozish, annatatsiya; matn asosida refeart yozish uchun reja tuzish, eng axamiyatga molik jummalarni tanlash, o'qish jarayonida reja, tezislar, tayanch so'z va so'z birikmalari asosida konspekt tuzish.

19.Sinfda amalga oshiriladigan ish turlaridan foydalanish; guruh bilan va yalpisiga olib boriladigan ishlarning nisbati: yakka va juft holda ishlash; ta'limiy hamkorlikning shakllari (o'quvchi-o'qituvchi, o'quvchi-kitob, o'quvchi-magnitafon, o'quvchi-rasm, o'quvchi-o'quvchi).\

20.Bilimlarni hisobga olish, nazorat qilish va baholash; o'quvchilar tomonidan chet tili materialining o'zlashtirilishi darajasi, savol javobga oid ishlar, mashq va topshiriqlar, test o'tqazish, sur'atlar bilan ishlash tarqatma materiallarning samaradorligi.

21.Keyingi darsga beriladigan topshiriqlar: topshiriqlarni tushunishni nazorat qilish; topshiriqlarni bajarish uchun beriladigan tafsiyalar, uni qisman sinfda o'quvchilar bilan birga bajarish, o'zlashtirilshag materilani mustahkamlash, o'quvchilarni keyingi darsga tayyorlash.

22.Darsni yakuniy bosqichi:

O'qituvchining o'quvchilar bilan suhbat; o'quv rejasiga kirmaydigan savollarga javob berish, har bir o'quvchi ishining baholanishi; baholarni e'lon qilishi va qo'yishi.

23.Umumdidaktik prinsiplarga rioya qilish; onglilik, amaliy maqsadga yo'naltirilganlik, soddadan murakkabga o'tish, metodik prinsplarni amalga oshirish;

24.O'qituvchi va sinf: darsdagi umumiy muhit (amaliy faol, hayrihohlik muhiti); o'qituvchining uquvchilar bilan munosabati; o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi; chet til o'qitish uslubini egallash, o'qituvchining pedagogik sifatidagi shaxsiy xislatlari, o'qituvchi nutqining ravonligi; o'qituvchining tashqi ko'rinishi; xushmuomalaligi.

25.O'qituvchi va o'quvchi nutqida ona tilining qo'llanilishi;

Murakkab grammatik qoidalarni ona tilida tushuntirish; murakkab so'z va iboralarni ona tilida tushintirish; o'quvchilar bilan muomala vositasi sifatida doimiy ravishda chet tilidan foydalanish; ona tilida bayon qilingan fikrni chet tilidagi muqobilini (tarjimasini keltirish). Chet tilida ko'proq gapirgan o'quvchilarni rag'batlantirish; ona tilini o'quvchilar faqat chet tilidagi so'z zahiralari yetishmay qolgandagina qo'llashlari.

26.Darsda vaqtdan unumli foydalanish;

O'qituvchi va o'quvchining gapirish vaqtlarini daqiqalar bilan belgilash; darsning tashkiliy qismi, uy vazifasini tekshirish, yangi materialning taqdimoti, yakuniy nazorat, uy vazifasini tushuntirish va darsning yakuniy qismi uchun vaqt metodik jihatdan to'g'ri taqsimlangan bo'lishi kerak; darsdagi vaqtning taqsimlanishi dars rejasiga muvofiq kelishi kerak.

27.Darsning umumiy baholanishi:

Biz yuqorida bayon qilgan bandlar bo'yicha dars tahlili amalga oshirilsa, darsni tahlil qilayotgan o'qituvchi uchun metodik yordam bo'ladi degan umiddamiz.

Nazorat va topshiriqlar:

- 1.Dars qanday tarkibiy qismlarga bo'linadi?
- 2.Darsdan ko'zlangan maqsad qanday belgilanadi?
- 3.Darsning tashkiliy qismi deganda nimani tushinasiz?
- 4.Yangi o'quv materialini taqdimoti shakillarini bayon qiling.
- 5.Auditoriyada amalga oshiriladigan ish turlari nimadan iborat?
- 6.Darsning yakuniy bosqichi qanday tahlil qilinadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “Aniqlovchi ergashgan” mavzui o‘tilgan dars tahlilini amalga oshiring.

Asosiy adabiyotlar:

1. E.A. Masliko, P.K. Babanskaya “Nastolnaya kniga prepodavatelya inostrannogo yazika”. Izd. Vissaya shkola. Minsk 1992 g.
2. J. Jalalov “Chet tili o‘qitish metodikasi”. T. 1996 y.
3. E.I. Passov “Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu”. Moskva 1991 g.
4. Uchebno-vospitatelniy protsess v kole. V.N. Yagodkin. Moskva 1981 g.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. D. Aliev “Arab tili darslarida noan‘anaviy usullar”. T. 2009
2. Yu.K. Babanskiy. Metodi obucheniya v sovremennoy obshchobrazovatelnoy shkole. M. 1985g.
3. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. Ye.I. Passov. Moskva 1991 g.

Mavzu: O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi psixologik munosabatlar

Dars o'quv maqsadi: O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni psixologik va pedagogik yondashuv asosida talabalarga yetqazish.

Tushunchalar va tayanch iboralar.

1. Kasbiy fazilatlar: Shaxsiy fazilatlar:
2. Kommunikativ xatolar: Kasbiy etika.

Asosiy savollar:

1. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini.
2. Dars davomida nutqni nutq maromiga yetqazish.
3. Kommunikativ xatolar.
4. Nojo'ya hatti-harakatlardan xoli bo'lish.
5. Talabalarning xulq atvorini har tomonlama o'rganish.
6. Kasbiy etika.
7. O'z hatti-harakati va his tuyg'ularini nazorat qila bilish.

Ma'lumki Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va uni tatbiq etilishi, ta'lim tizimiga yangi tus berdi. Darsni tashkil etishda, yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy texnik vositalar qo'llaniladigan bo'ldi. Buning natijasi o'laroq muallim hamda o'quvchiga nisbatan yangi qarashlar va talablar yuzaga keldi.

O'qituvchi o'quv jarayonini amalga oshiruvchi va tashkil etuvchi insondir. U nafaqat kasbiy, balki shaxsiy fazilatlariga ham ega bo'lishi kerak.

- O'qituvchi avvalambor o'zi o'qitadigan o'quv fanini mukammal bilishi, uning metodologik asoslarini o'zlashtirgan bo'lishi va o'z bilimini talabalarga yetqazib, o'rgata bilishi;

- Yuqori madaniyatli, zakovatli, ongli, o'z burchi va vazifasiga sadoqatli, talabalarga mehr-muhabbatli, ularni har tomonlama va ijodiy shaxs sifatida rivojlantira olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari o'qituvchi o'quv jarayonida pedagogik yondashuvlar mohiyatini egallashga yordam beradiga kasbiy fikrlash qobiliyatiga, taktik va strategik muammolarni hal qilishda optimal yechimlar topa olishi, ijodiy ravishda pedagogik va ilg'or tajribalardan foydalanish va individual ish uslubiga ega bo'lishi, o'zining kasbiy bilimlarini takomillashtirib borishi zarur. Yuqoridagi o'qituvchining sifatlari uning pedagogik va uslubiy madaniyatini, ijodiy bilimga intiluvchan shaxs ekanligini namoyon qiluvchi ko'rsatkichlardir.

O'qituvchining kasbiga xos bo'lgan fazilatlardan biri talabalarni sevish va ularning har biriga hurmat e'tibor qaratishdir.

Oliy o'quv yurti talabalari balog'at yoshiga yetgan shaxslardir. Albatta, ularning xulq atvorlari, yurish turishlari, psixologik jixatlari maktab o'quvchilarinikidan bir muncha farq qiladi. Garchi birinchi kurs talabalari o'quv dargohiga birinchi bor qadam qo'ygan bo'lsalar ham, ular talaba degan nom-maqom tufayli bir oz muddat avvalgi o'quvchilik mas'uliyatini unutib, mas'uliyatning yangi bosqichi- talabalik mas'uliyatini his qila boshlashlari kerak bo'ladi. O'z kasbining xususiya-tiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi doim o'z faoliyatini maksimal darajada o'z kasbini ado etishga, o'quv maqsadlariga qaratgan bo'lishi zarur. Chunki, bunday o'qituvchi talabalarni maqsadlar sari yetaklab, ularda tegishli bilim va ko'nikmalar xosil qila oladi.

Ma'lumki, talabalarining bilim olishga bo'lgan rag'batlari va layoqatlarini, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik talab qilinadi. Tarbiyalash tufayli har qanday salbiy to'siqlar bartaraf qilinib, shaxsning kamolga yetishishi ta'minlanadi.

Shubhasiz tarbiya jarayoni juda murakkab jarayon. O'qituvchi hoh maktabda, hoh oliy o'quv dargohida bo'lmasin, bir yoki bir nechta emas, o'nlab hattoki yuzlab talaba va o'quvchilar bilan muloqotda bo'lishiga to'g'ri keladi.

Talabalar bilan muloqotda, tarbiya jarayonida, darsda o'qituvchi qator xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Bunday xato va kamchiliklar o'qituvchining o'z ustida faol ishlash natijasida bartaraf etiladi.

Avvalambor o'qituvchi talabalarga balog'otga yetgan shaxs sifatida qarashi va shunga mutanosib ravishda muomalada bo'lishi kerak. O'qituvchi talabalarga "Siz" deb murojaat qilgani afzal. Chunki, talabaga nisbatan "Sen" deb murojaat qilish unga nisbatan o'qituvchining hurmat-ehtiromini kamsitishdek bo'lib tuyuladi. Albatta, bu o'rinda talaba o'z maqomini yoddan chiqarmasligi, suiste'mol qilmasligi kerak bo'ladi. Talabalarga bunday murojaat va munosabat ularda o'zlariga nisbatan shaxs sifatida g'urur va ehtirom xis-tuyg'usini uyg'otadi.

Dars va umuman pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchining har bir hatti-xarakati, uning shaxsiy sifatlari ularning tabiatiga qarab talabalarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchi darsga kirganda gapirish ohangini auditoriyaning katta kichikligiga qarab sozlab olishi kerak bo'ladi. Toki, talabalardan birortasi o'qituvchidan ovozini balandroq ko'tarishini so'ramasin. Ba'zi yosh o'qituvchilar, talabalar diqqat bilan eshitishlari uchun pastroq ovozda gapiradilar. O'qituvchilar avvalambor o'z diqqatlarini nima tushuntirayotganligiga qaratadilar va bunda ovozning o'rta balandlikda, bir maromda bo'lishi ba'zi o'rinlarda urg'u berib ko'tarilishi mumkin bo'ladi.

Dars davomida o'qituvchi o'z nutqini dars xonaga moslashi, ya'ni uning nutqida talabalar uchun tushunarsiz so'z va atamalarining ko'p ishlatilishi maqsadga muvofiq emas. Darsda qaysi o'quv fani o'qitilayotgan bo'lsa, shu predmetga xos atamalar soddalashtirilgan tarzda qo'llanilishi kerak. Biroq o'qituvchi o'z nutqini o'ta soddalashtirib yubormasdan, o'zi uchun eng ma'qul bo'lgan nutq shaklini tanlashi kerak. Agar talabalarga tushunarsiz so'zlar bo'lsa, uni doskaga yozib, sharhlab berishi to'g'riroq bo'ladi.

O'qituvchi darsda kommunikativ xatolarga ham yo'l qo'yishi mumkin. Dastlabki o'tiladigan darslarda o'qituvchi juda keng ko'lamdagi ma'lumotlarni o'ta tez sur'atda taqdim etishga harakat qiladi. Dars mobaynida o'qituvchi o'zini notiqlik minbaridan turib gapirayotgandek tutishi kerakmas. U o'zini o'ta vazmin tutishi, gapirayotganda atrofga yoki doskaga qaramasdan, nigohini talabalarga qaratishi kerak. Ba'zi o'qituvchilar diqqat-e'tiborini jamlashga ushbu holat

monelik qiladi deb o'ylaydilar. Biroq vaqt o'tishi bilan o'z faoliyatini endi bilayotgan o'qituvchida o'ziga nisbatan ishonch hosil bo'lib, o'quvchilarning nigohlari bilan to'qnashishdan qo'rqmaydigan bo'ladi.

Sinfda o'qituvchining hatti-harakati va yurish-turishi ham talabalar tomonidan turli xil qabul qilinishi mumkin. Agar o'qituvchi o'zi tomonidan ana shunday nojo'ya hatti-harakatlarni qilsa, ulardan iloji boricha tezroq qutilishga harakat qilishi kerak. Aks holda bunday holat talabani dars jarayonidan chalg'itishi mumkin.

O'qituvchining o'z tashqi qiyofasiga e'tibor berishi ozoda va orasta bo'lishi ham dars jarayonidagi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bunga har doim e'tiborni qaratish zarur.

Har qanday guruhga kirmasin o'qituvchi talabalarning xulq-atvorini, ularning yurish-turishlarini kuzatib borishlari zarur. Odatda o'qituvchining faoliyati jamoa bilan ishlashga qaratilgan bo'ladi, biroq u talabalarga individual ravishda yondashuvni ham bilishi kerak.

O'qituvchining eng muhim jihatlaridan biri har bir talabaning buyuk shaxs sifatidagi imkoniyatlarini ochib berishdir. Talabalar bilan yanada yaqinroq muloqotda bo'lish uchun o'qituvchi o'qishning birinchi kunidanoq ular bilan yaqindan tanishib, ularning ismlarini aytib chaqirsa, bu o'qituvchi va talaba o'rtasidagi psixologik jixatdan yaqinlik munosabatlarining o'rnatilishiga olib keladi. Kasbiy etika nuqtai-nazaridan olganda o'qituvchi talabalar bilan muloqotda bo'lganda o'z obro' e'tiboriga putur yetqazmaydigan, o'qituvchilik sha'niga xilof bo'lmagan xaqiqiy ustoz-shogird munosabatlarini shakillantirish kerak bo'ladi.

Dars jarayonida o'qituvchi o'rinli ravishda yumor elementidan foydalanishi mumkin. Biroq bu darsni maynabozlikka aylantirish degani emas. Yumorni o'rnida aytish, qo'llash darsga jonli tus berishga sababchi bo'ladi. Bu o'rinda "yumor elementi bo'lmagan dars to'laqonli dars emas", degan so'zlarini keltirish kifoyadir.

Bundan tashqari o'qituvchining o'zini darsda har qanday vaziyatda ham vazmin, bosiq holda tuta bilishi dars xonasida uni vaziyatni boshqaruvchi yagona peshqadam rahbarga aylantiradi.

Haqiqiy pedagog sinfdagi talabalarni “yaxshi” yoki “yomon” guruhlarga ajratmaydi. Agar nizoli holat vujudga kelganda ham, e’tiborni boshqa muammoga qaratib, intizomni buzuvchi talabani darsdan keyin alohida suhbatga taklif etish kerak. Bu bilan o’qituvchi sinfda yuz bergan keskin vaziyatni yumshatishga muvaffaq bo’ladi. Bordiyu o’qituvchi bunday vaziyatda o’zini tuta olmasa, talabalardan buni kutish noo’rin bo’ladi.

Umuman darsda, o’quv jarayonida o’qituvchining o’zini tuta bilishi, yurish turishi, talabalar bilan munosabati va ular bilan olib boradigan muloqoti uning umumpedagogik faoliyatidagi yetakchi omillardan biri bo’lib hisoblanadi.

Nazorat savol va topshiriqlari.

1. Shaxsiy va kasbiy fazilatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Kommunikativ xatolar nimalardan iborat bo’lishi mumkin?
3. Kasbiy faoliyat mobaynida vazminlikka qanday erishiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Milliy pedagogikamiz tarixidan ustoz-shogird munosabatlariga oid referat tayyorlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. U.R. Mavlonov, O.To’raev, K.Xoliqberdiev “Pedagogika” T.2001 y.
2. Adam. M. Dreer “Prepodavanie v sredniy shkole” SShA. Iz-vo “Progress” 1983 y.
3. Ulfat mahkamov “Ahloq-odob saboqlari”. T.1994 y.
4. N.V. Grebennikov “Semeynoe vospitaniy” M.1990 g.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Imom Zarpujiy “Ilm olish sirlari” T. 2004 y.
2. A.Avloniy “Guliston yoki ahloq” T.1999 y.

Mavzu: Pedagogik texnologiyalar va prinsiplar asosida ma'ruzalar tayyorlash

Dars o'quv maqsadi: Pedagogik texnologiya va uning prinsiplari asosida tuziladigan ma'ruzalarning tarkibi, shakli va mazmuni haqida ma'lumot berish.

Tayanch iboralar:

1. Ma'ruza matni
2. Maqsadga muvofiq tasniflash
3. Ma'ruza shakliga qarab tasniflash
4. Ma'ruzani baholash.

Asosiy savollar:

1. Pedtexnologiya va uning mohiyati.
2. Ma'ruza matnidagi asosiy ma'lumotlar.
3. Ma'ruza matnidagi asosiy bandlar.
4. Ma'ruzaning vazifalari.
5. Ma'ruzaning qo'yilgan maqsadga muvofiq tasnifi.
6. Ma'ruzaning taqdim etilish shakliga ko'ra tasnifi.
7. Ma'ruzani baholash va undagi asosiy ko'rsatkichlar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng respublikamiz rahbariyati, shaxsan prezidentimiz I.Karimovning tashabbusi bilan ilg'or, taraqqiyot mamlakatlar ta'lim tizimi bilan tanishish va uni hayotga tadbiq etish masalasi qo'yildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va an'anaviy ta'lim metodlaridan nimasi bilan farq qiladi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar rasmiy hujjatlarda yangi pedagogik texnologiya, ilg'or pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, qomuslarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunining yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Bularning orasida e'tiborga loyiqrog'i Yunesko ta'rifidir. Pedagogik texnologiya- bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlantirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir.

Ruscha ta'rif «Pedagogicheskaya texnologiya – eto sistemniy metod sozdaniya, primeneniya i opredeleniya vsego protssessa prepodavaniya i usvoeniya znaniy s uchetom texnologicheskix i chelovecheskix resursov i ix vzaimodeystviy, stavlyayemyy svoey zadachey optimizatsiyu form obrazovaniya».

Bu ta'rifdagi asosiy tushunchalar tizimli uslub ekanligi ravshan, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizim sifatidagi tarkibiy qisimlarini ifodalaydi. Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiyani o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish uslublari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir.

Masalan ko'p hollarda ta'lim asosan axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi. Boshqa misol: o'quv yurtlaridan birida ta'lim oluvchilar bilimlarini nazorat qilish uslubini ma'muriyat barcha fanlar uchun bir xilda ularni har birining xususiyatlarini hisobga olmay asossiz belgilangan.

Sanoatda texnik xujjatlar talablariga aniq rioya qilib ijrochining shaxsiga bog'liq bo'lmagan xolda kafolatlangan natija beradigan minglab texnologik

jarayonlar ishlab chiqilgan. Bunday texnologik jarayonning asosi bo'lib detalning ishchi chizmasi va yig'ma birliklar chizmasi xizmat qiladi.

60-70 yillarda AQSh da yuzaga kelgan pedagogik texnologiya oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqaldi, YuNESKO kabi nufuzli tashkilot tomonidan tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o'zlashtirilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim samaradorligini oshirishga texnologik yondashuv AQSh da o'ttiz yillar muqaddam shakllangan edi.

Nima uchun biz shu kungacha jahon pedagogika fanining bu sohadagi yutuqlari to'g'risida juda kam narsa bilamiz?

Sababi shuki, pedagogik texnologiya (bu iboraning birlamchi tushunchasida) bixeviorizm g'oyalariga asoslanadi. Bu yo'nalishning psixologiyadagi eng muhim qoidasi organizmning qo'zg'atgichi (stimulyatsiya) bilan unga javobi o'rtasidagi aloqani bir ma'noligining so'zsiz tan olinishidir. Bu ta'lim jarayonini tajriba-sinov tarzida o'zgarishiga ham, bu jarayonni boshqarishga ham bir xilda dahldordir.

Bixeviorizmning psixologiya ilmiy iboralarini rivojlantirishdagi asosiy ahamiyati harakat (ta'sir) tushunchasini ishlab chiqilishidadir. Oldingi nuqtai nazarlarda faqat ichki harakat yoki jarayon deb qaralgan bo'lsa, bixeviorizm unga tashqi, tan (badan) aks ta'sirini ham kiritib, psixologiya sohasini kengaytirdi.

Bixevioristik ta'limotning asosini "rag'bat hatti harakat" (S-R) iborasi tashkil etadi. Sodaroq qilib aytganda kishi xulq-atvori rag'batlantiruvchi ta'sirdan kelib chiqadi. Bixevioriz g'oyalarining keng tashviqotchisi D.Uotson doimo shu narsani ta'kidlar edi.

To'g'ri qo'llanilgan rag'batlantirish va uni ijobiy qo'llab quvvatlash kishini xulq-atvorini o'zgartirishda va hatto shaxsini shakllantirishda beqiyos imkoniyatlarni ochib beradi.

Yaxshi javob hatti-harakatga (bilim, ko'nikma va sh.o') mukammal o'ylab topilgan va o'quvchilar ehtiyojiga mos keladigan rag'batlovchi vositalar orqali erishiladi.

Amerika pedagogikasi bixevioristik rag‘batlash va quvvatlash nazariyasini qabul qilgan. U ta’lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma, fikrlash tarzi, baholash, xulq kabi hatti-harakatlar majmuasini namoyish etishni oldingi qatorga olib chiqdi. Masalan:

- “Gamlet” ni o‘qib chiqib, uning qisqa mazmunini yozma ravishda ifoda qiladilar.

- Kutubxonada mustaqil ishlab o‘quvchi o‘z guruhida ma’lum mavzu bo‘yicha ma’ruza qila oladi. Mavzuni o‘rgatish va o‘rganishga bo‘lgan bunday yondashuv bizning o‘quv muassasalarida yetishmaydi.

Shuning uchun ham ta’limga bo‘lgan yondashuv texnologik yondashuvdan bir muncha farq qiladi.

Tushintiruv-namoyishi (ananaviy)	Texnologik (yondashuv).
-O‘qituvchining talabaga ma’lumot berishi.	-Tizimli yondashuvdan foydalangan holda o‘quv jarayonini loyihalash
-Aniq bo‘lmagan o‘quv maqsadlari.	-Ko‘zlangan andozaga ko‘ra ta’lim oluvchining kuzatilishi mumkin bo‘lgan harakatlarining jamlamasi ko‘rinishida o‘quv maqsadlarini mumkin qadar aniqlashtirish.

Ma’ruza matni va uning tarkibiy qismlari

Ma’ruza matni – mashg‘ulot mazmunini yaxlit, ma’lum ketma-ketlik va tizimda nazariy ifoda etilgan shaklidir. Ma’ruza matni uning maqsadini, yoritilishi kerak bo‘lgan holatlarni, ularni asoslashni isbot qilinadigan (daliliy) mulohazalar, raqamlar, sxema va nihoyat kerakli xulosalar orqali aks ettirib beradi.

Oddiy – so‘zlash orqali ifoda etiladigan uslublardan ma’ruza o‘zining aniq tarkibi, o‘quv materialini mantiqiy bayon qilib berishi, bilimlarni sistemali ravishda yoritib berishi bilan ajralib turadi.

Ma'ruza matni ko'rib chiqiladigan muammo bo'yicha eng yangi ma'lumotlarni va shuningdek internet tarmog'i orqali olingan ma'lumotlarni, jurnal va boshqa adabiyotlardan olingan maqolalarni o'zida mujassamlashtirishi kerak.

Uning mazmuni konkret sohadagi qo'yilgan masalalar mohiyati va milliy ideologiyani ifoda etishi kerak.

Zamonaviy ma'ruza o'qituvchining yakka nutqi shaklida ifoda etilmaydi (ko'rib chiqilmaydi) shuning uchun o'qituvchi o'z konspektida talabalarning bilim olishi (orttirish) faoliyatlarini faollashtiruvchi turli xil uslublarni aks ettirishi kerak. Bular quyidagilar bo'lishi mumkin. O'quv materialini muammoli bayon qilish usullari; talabalarga konkret javobni talab qiluvchi yoki ritorik (javobi ichida bo'lgan) savollar (masalalar) ni qo'yishi; suhbat tarzida o'tkazish, biron tushuncha yoki qoidani ifodalab berishi, yoki ta'riflashni taklif qilish; auditoriyadagi talabalarni kichik guruhlariga bo'lish.

Mazkur guruhlarda qo'yilgan vazifani qisqacha muhokama qilish, natijalar yuzasidan fikr almashish; tarqatma materiallardan foydalanish.

Xozirgi kunda o'qituvchi leksiya konspektini qay shaklda tuzishi bu ixtiyoriy ish. U lektorning fikrlarini xususiyatlari va yo'nalishlarini aks ettiradi. Biroq konspektni yozayotganda muallif ularni o'quv qo'llanmalariga muvofiq tuzishi kerak.

Tabiiyki, ma'lum bir ma'ruza o'zining tarkibi bo'yicha boshqa ma'ruzadan farq qilishi mumkin. Bu esa bayon qilinadigan materialning turiga bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq barcha ma'ruzalar uchun qabul qilingan umumiy shakl ham mavjud. Xozirda ma'ruzalar uchun qabul qilingan umumiy shakl quyidagi ko'rinishga ega.

1. Mavzu:
2. Dars o'quv maqsadi:
3. Tushunchalar va tayanch iboralar:
4. Asosiy savollar:
5. Ma'ruzaning qisqacha bayoni.
6. Nazorat savol va topshiriqlar.

7. Mustaqil ish topshiriqlari.
8. Asosiy foydalanilgan adabiyotlar.
9. Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar.

Ma'ruza quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ma'lumot berish (zarur ma'lumotlar bayon qilinadi).
2. Rag'batlantirish (mavzuga qiziqish uyg'otadi).
3. Tarbiyalash.
4. Rivojlantiruvchi (hodisalarga baho beradi va fikrlashni rivojlantiradi).
5. Yo'naltiruvchi (ma'lum muammolarga, kerakli adabiyot va manbalarga).
6. Tushintiruvchi (fanning shakllanish asoslari borasida).
7. Dalillar bilan ishontirish.

Ma'ruzaning qo'yilgan maqsadlarga muvofiq tasnifi

1. Dastlabki kirish ma'ruzasida o'qituvchi kursning maqsad va vazifalari, uning o'quv fanlari tizimidagi o'rni va ahamiyatini bayon qiladi. Ma'ruzada kursga oid umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot berilib, ilmiy muammolar ba'zi gipotezalar o'rta tashladi, fanni rivojlantirish istiqbollari va uning amaliyotdagi o'rni va xissasi belgilanadi. Kirish ma'ruzasida nazariy materialni mutaxassisning kelgusidagi ish amaliyoti bilan bog'lash kurs haqidagi umumiy uslubiy ishlar haqida gapirib o'tish, darslik va o'quv qo'llanmalari bilan tanishtirish va ularning ro'yxatini taqdim etish va xabardor qilish maqsadga muvofiq.

Informasion (ma'lumot olish uchun o'qiladigan) ma'ruza mavzuning mohiyatini rejaga muvofiq ochib beradi.

Umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot berishga mo'ljallangan (obzorli) ma'ruza qisqacha konspektidan iborat bo'lmay, bilimlarni yuqoriroq saviyada tizimlashga qaratilgan bo'ladi.

Ta'lim psixologiyasi shuni ko'rsatadiki, tizimli bayon etilgan o'quv materiali, yaxshi yodda qoladi va boshqa bilimlarni mushtarak o'rganishiga yordam beradi.

Bunday ma'ruzalarda imtihon davrida uchraydigan qiyin masalalarni ko'rib chiqish nazarda tutiladi.

Ma'ruzalarni taqdim etish shakliga qarab tasniflash

Muammoli ma'ruza. Bunda o'qituvchi oldida – muammoli vaziyatni yoritib talabalarni muammolar echimini qadam- baqadam maqsad sari yaqinlashtirib topishga undashi. Buning uchun yangi o'quv materialini muammoli masala shaklida beriladi.

Ko'rgazmali ma'ruza. Bunday ma'ruza og'zaki ma'lumot berishga qaratilgan bo'lib, o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv obekti (predmeti) namoyish qilinadi. Bunda slaydlar, rasmlar, foto rasmlar sxema va jadvallardan foydalaniladi.

Ko'rgazmali materiallar bilimlarni tizimlashga yangi ma'lumotni o'zlashtirishga muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal qilishga yordam berish kerak.

Matbuot konferensiyasi shaklidagi ma'ruza

Bu xil ma'ruzada o'qituvchi mavzuni e'lon qilib, yozma ravishda savollar berishni so'raydi. 2-3 daqiqa mobaynida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarni o'qituvchiga yo'llaydilar. O'qituvchi 5-6 daqiqa mobaynida ularni mazmuni bo'yicha saralab ma'ruzani boshlaydi. Ma'ruza savollarga javob shaklida emas, bir-biri bilan bog'langan matn shaklida ifoda etiladi. Ma'ruza oxirida o'qituvchi talabalarning qiziqtirgan savollarga javob yuzasidan tahlil o'tkazadi.

Ma'ruzani baholash

1. O'qituvchi va ma'ruzaning ma'naviy-ahloqiy jihatlari:
2. Ilmiylik va ma'lumotlar darajasi (zamonaviy ilmiy darajada):
3. Dalillash va isbotlash:
4. Aniq va ishonchli misollarning mavjudligi:
5. Bayon qilishda vazminlik:
6. Tinglovchilardan tafakkurini, fikrlash uchun savollar qo'yish:

7. Bayon qilinayotgan masalalarning aniq tarkibi va ularning mantiqan ochib berish:

8. Ko‘rib chiqilayotgan asosiy fikr mulohazalar va qoidalarni aloxida turli shakllarda takrorlash:

9. Hammaga tushunarli aniq va ravon tilda bayon qilish yangi atamalarni sharhlash:

10.Imkon qadar audiovizual didaktik materiallardan foydalanish:

Baholashdagi tayanch ko‘rsatmalar

- ma‘ruzaning mazmuni:
- metodika:
- talabalar ishiga rahbarlik:
- ma‘ruzachining fazilatlari:
- ma‘ruzaning samaradorlik darajasi:

Ma‘ruzaning mazmuni

- o‘quv-namunaviy dasturga muvofiq bo‘lishi:

- avvalgi ma‘ruzaning qisqacha (obzori) mazmuni, yangi o‘quv material bilan bog‘lash:

- dolzarbligini aniqlash, amaliyot bilan bog‘lash, boshqa fanlar tizimidagi o‘rmini belgilash:

- ilmiyligi, dalil va isbotlanganlik holati:
- ma‘lumotni qamrab olish (fanning hozirgi zamon taraqqiyotiga mosligi):
- amaliyotdan misollar keltirish:
- uslubiy ko‘rsatmalar (seminar mavzulari, adabiyotlari).

Nazorat savol va topshiriqlar

1.Pedtexnologiya nima? Uni ta‘riflang.

2.Ma‘ruza matnidagi asosiy bandlar nimalardan iborat?

3.Ma‘ruzaning qo‘yilgan maqsadga muvofiq tasnifini so‘zlab bering?

4. Ma‘ruza sifati qanday ko‘rsatgichlar asosida baholanadi?

Mustaqil ish topshiriqlar

“Arab tilida moshlashgan aniqlovchilik birikma” mavzusi yuzasidan ma’ruza tayyorlash.

Adabiyotlar.

1. B. Farberman “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar” T. 2000 y
2. B. Ziyomammedov “Komollikka eltuvchi kitob” T. 2006 y
3. J. Jalolov “Chet tili o‘qitish metodikasi” T. 1993 y
4. M. Masliko «Nastolnaya kniga prepodavatelya inostrannogo yazika» Minsk 1991g.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov, M.Tojiev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.2009y.
2. N.Postalyuk. Tvorcheskiy stil deyatelnosti: pedagogicheskiy aspekt. Iz-vo Kazanskogo universiteta. 1989g.

Mavzu: Matnlarda tayanch ibora va tushunchalarni aniqlash prinsplari

Dars o‘quv maqsadi: Magistr'larga tayanch ibora va tushunchalarni aniqlash prinsplarini o‘rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. tayanch so‘z;
2. kalit vazifasidagi so‘z;
3. ma‘noni aniqlashtiruvchi so‘z;
4. ma‘no ochuvchi sifatdosh so‘z;
5. shamsiya va qamariya harflari, fe‘l, sifat, sifatdosh, ot, ega, kesim, aniqlovchi.

Asosiy savollar:

1. Tayanch ibora va tushunchalarni bilishning zarurati va prinsplari.
2. Arab tilidagi matnda harflar tasnifining ahamiyati.
3. Matnlarni o‘qishda morfologik qoliplarning ahamiyati va ularni ajratish.
4. Matnlarda gap bo‘laklarining tartibi va ularni tasniflab ajratish.
5. Old ko‘makchilarni tasniflab ajratish.

Tayanch ibora va tushunchalar deganda qator muammoli savollar va mulohazalarning kelib chiqishi tabiiy bir hol.

Tayanch so‘z va tushunchalar deganda , matndagi jumlar tarkibida asosiy mavqeni egallab, mavzuning asosiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi, o‘ziga xos kalit vazifasini bajaruvchi so‘z yoki ibora tushiniladi.

Tayanch so‘zlarni bilish matnni tezda anglab olib, nima haqda so‘z yuritilayotganini bilib olish, kerakli ma‘lumotni tanlash va ola bilish, butun bir jumla yoki abzasdagi fikrni anglab o‘zlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari tayanch so‘z va iboralarni berishdan asosiy maqsad talabalarda mantiqiy fikrlashni takomillashtirish asosida ularning bilimlarini tekshirishdir.

- Ma'lumki, arab yozuvi o'ziga xos xususiyatga ega. Ya'ni arab yozuvida qisqa unlilar yozma ifoda etilmaydi. Shuning uchun ham arab tilini birinchi bor o'rganayotgan talaba (o'quvchilar) uchun ma'lum qiyinchiliklar tug'ilishi tabiiy bir holdir.

Bu yerda o'z o'zidan savol tug'ilishi mumkin. Arab tilidagi harakatsiz matnlar qanday o'qiladi? Ularni osonlashtirish mumkinmi? Buning uchun nimalar qilinishi kerak?

Bu o'rinda ishni arab alifbosidan boshlashni taklif etish mumkin.

Ma'lumki, arab alifbosi 28 ta undosh harfni o'z ichiga oladi. Ular teng ikkiga bo'linadi. Birinchi guruh harflar **shamsiya** harflari va ikkinchi guruh harflari **qamariya** harflari deyiladi. Bunday tasniflanish shubhasiz arab arfografiyasi (imlosi) bilan bevosita bog'liqdir.

Agar aniqlik artikli ال shamsiya harflari bilan bog'langan otlarga qo'shilsa, al artiklidagi – harfi assimilyatsiyaga uchraydi (o'qilmaydi), so'zning birinchi harfi esa ikkilanadi. Masalan:

الشَّمْسُ، الطَّالِبُ، الدَّفْتَرُ

Agar bunday so'zdan avval old ko'makchi yoki boshqa biron- bir so'z kelsa, ال artikli mutlaqo o'qilmaydi, ya'ni to'liq assimilyatsiyaga uchraydi. Yozuvda ال artikli ustiga vasla belgisi qo'yiladi.

Agar ال artikli qamariya harfi bilan bog'langan so'zga qo'shilsa va undan oldin biron-bir so'z kelmasa, ال artikli to'liq o'qiladi. Masalan:

المُعَلِّمُ – Al-mu'allimu

Agar bunday so'zdan avval old ko'makchi (predlog) yoki biron-bir boshqa so'z kelsa, ال -artiklining ا harfi-o'qilmaydi: من المعلم. O'qilmaydigan ا ning ustiga vasla belgisi qo'yiladi.

-Ma'lumki, arab tili flektiv tillar toifasiga kiradi. So'z turkumlari: ot, sifat, son, sifatdosh, fe'l, ish-harakat nomi (masdar) va boshqalar ma'lum qoliplar (formulalar) yordamida yasaladi. Bu qoliplarni bilgan talaba ularni behato o'qiy oladi.

I.Masalan, o'rin-joy nomi مفعلة، مفعول qolipida yasaladi, ya'ni مدرسة، مكتب

II.Kasb-kor nomi فعالة qolipida yasaladi, ya'ni حدادة, temirchilik, tikuvchilik.

III.Sifatlarning eng ko'p uchraydigan qoliplari فعيل (كبير), فعل (سهل), أفعال-فعلاء (أحمر-حمراء)

IV.3 O'zakli fe'llarning II-XI boblari sifatdoshlari.

II – تفعيل، بفعلة	VI-تفاعل
III-فعال، مفاعلة	VII-انفعال
IV-إفعال	VIII-افتعال
V-تفعل	IX-افعال
	X-استفعال

V. Sifatdoshlar qoliplari ko'p ishlatiladigan morfologik qoliplardan hisoblanadi.

I – فاعل، مفعول	V-متفعل، متفعل	IX-مفعّل
II-مفعّل، مفعّل	VI-متفاعل، متفاعل	X-مستفعل، مستفعل
III-مفاعل، مفاعل	VII-منفعل، منفعل	
IV-منفعل، منفعل	VIII-مفتعل، مفتعل	

VI. Fe'l boblarining qoliplari ham shubhasiz muhim morfologik qolip hisoblanadi. Fe'llarning o'tgan zamon va hozirgi zamon shakillari, aniq va majhul darajalarini bilish ham harakatsiz o'qishda tayanch qoidalarini tashkil etadi. Masalan.

I bob

O'tgan zamon فَعَلَ، فَعِلَ، فَعِلَ majhul daraja – فَعَلَ

Hozirgi kel.zamon يَفْعُلُ، يَفْعِلُ، يَفْعِلُ majhul daraja – يُفْعَلُ

II bob.

O'tgan zamon فَعَّلَ majhul daraja – فُعِّلَ

Hozirgi kel.zamon يَفْعِّلُ majhul daraja – يُفَعَّلُ

III bob.

O'tgan zamon فَاعَلَ majhul daraja – فَوَعَلَ

Hozirgi kel.zamon يَفَاعِلُ majhul daraja – يُفَاعَلُ

IVbob.

O'tgan zamon أَفْعَل majhul daraja – أَفْعِلْ

Hozirgi kel.zamon يُفْعِلُ majhul daraja – يُفْعَلُ

V bob.

O'tgan zamon تَفَعَّل majhul daraja – تَفْعَلْ

Hozirgi kel.zamon يَتَفَعَّلُ majhul daraja – يَتَفَعَّلُ

VI bob.

O'tgan zamon تَفَاعَلَ majhul daraja – تَفُوْعَلْ

Hozirgi kel.zamon يَتَفَاعَلُ majhul daraja – يَتَفَاعَلُ

VII bob.

O'tgan zamon انْفَعَلَ majhul daraja – انْفُعِلْ

Hozirgi kel.zamon يَنْفَعِلُ majhul daraja – يَنْفَعَلُ

VIII bob.

O'tgan zamon افْتَعَلَ majhul daraja – افْتُعِلْ

Hozirgi kel.zamon يَفْتَعِلُ majhul daraja – يَفْتَعَلُ

IX bob.

O'tgan zamon افْعَلَّ majhul darajasi yo'q

Hozirgi kel.zamon يَفْعَلُ majhul darajasi yo'q

X bob.

O'tgan zamon اسْتَفْعَلَ majhul daraja – اسْتَفْعِلْ

Hozirgi kel.zamon يَسْتَفْعِلُ majhul daraja – يَسْتَفْعَلُ

Yuqoridagi qoliplar yordamida yasalgan so'z turkumlari gapda qaysi gap bo'lagi bo'lib kelsa, ularning grammatik ifodasi (kelishiklarda kelish holati)ga qarab o'qish mumkin.

Arab tilida sodda gap o'zbek tilidagi kabi sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarga bo'linadi. Ularda gap bo'laklarining tarkibi quyidagicha bo'ladi.

Sodda yig'iq gap bosh bo'laklar ega va kesimdan iborat bo'ladi. Odatda ega 1-o'rinda va aniq holatda kesim noaniq holatda bosh kelishik va tanvin bilan keladi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin.

المدرسة كبيرة

Al-madrasatu kabiratun.

Qoliplar yordamida ifodallasak: I qolip مفعلة III qolip فعيل. Demak: (المفعلة الكبير) فعيل deb ifodalash mumkin.

2-misol. ذهب محمود VI band. I bob fe'li.

فعل (محمود) مفعول (ذهب) V banddagi I qolip (sifatdoshning majhul darajasi), ya'ni

Ikkinchi darajali gap bo'laklari ishtirok etsa, bu yerda moslashgan aniqlovchi (sifat, sifatdosh) ni uchratish mumkin.

Chunonchi, old ko'makchilar aniq holatdagi otlarga qo'shilganda qanday harfga tugashiga qarab turlicha o'qiladi. – old ko'makchisi aniq otga qo'shilsa uning sukun harakati kasraga aylanadi. Ya'ni,

رجعت من المدرسة Raja'tu minall-madrasati

قرأت عن الجرائر Qara'tu 'nil – Jazaaira.

فعلت عن الفاعلة

Oxiri alif maqsuralik old ko'makchi so'zga qo'shilganda --- qisqa a ga aylanadi. Ya'ni

فعل إلى الفعلة (ذهب إلى الجامعة) Fa'ala ilal fa'ilati

Moslashuv kategoriyasi arab tilida jins kategoriyasi mavjud bo'lganligi uchun rus tilidagi kabi grammatik kategoriyalarda namoyon bo'ladi.

Ega va aniqlovchi eganing qanday ot bilan ifodalanganligiga qarab holatda, sonda, kelishikda va jinsda moslashishi mumkin. Masalan:

At-tolibul-mujtahidu zakiyyyun:

الطالب المجتهد ذكي

الطالبة المجتهدة ذكية

Biz yuqorida bayon qilgan qoidalarga rioya qilinsa, arab tilidagi sodda matnlarni o'qish mumkin bo'ladi.

Nazorat savol va topshiriqlari.

1. Arab yozuvi qanday xususiyatga ega?
2. Arab tilida harflar tasnifining ahamiyati nimadan iborat?
3. So'zlarni o'qishda morfologik qoliplarning ahamiyati qanday?

4. Jumlada gap bo‘laklarining tartibi va ularning moslashuvi matnlarni o‘qishda qanday ahamiyat kasb etadi?

Mustaqil ish topshiriqlari

Arab tilidagi “Izofa birikmasi” mavzusidagi tayanch ibora va tushunchalarni belgilang.

Asosiy adabiyotlar:

- 1.B.Z.Xolidov. Uchebnik arabskogo yazika. Tashkent.1981 g
2. B.Grande. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno istoricheskoy osvechenii. Moskva 1998 g
- 3.N.Ibragimov, M.Yusupov «Arab tili grammatikasi». 2009y

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov, M.Tojiev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o‘zbek milliy modeli. T.2009y.
2. N.Postalyuk. Tvorcheskiy stil deyatelnosti: pedagogicheskiy aspekt. Iz-vo Kazanskogo universiteta. 1989g.

Mavzu: Mutaxassislik fanlari o‘qitish metodikasi fanida pedagogik texnologiyaning ahamiyati va unda aks ettirilgan bilim berish usullari

Dars o‘quv maqsadi: Mutaxassislik fanlari o‘qitish metodikasi kursini taqdim etish jarayonida pedagogik texnologiyaning mohiyati, tamoillari va avvalgi usullardan afzalligi haqidagi malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Pedtexnologiya;
2. Yangi pedagogik texnologiya;
3. Ilg‘or pedagogik texnologiya;
4. Perogressiv pedagogik texnologiya;
5. Ta’lim usullari;
6. Ta’limning og‘zaki usullari;

Asosiy savollar:

1. Pedagogik texnologiyani tatbiq etish zarurati.
2. Pedagogik texnologiyaning mohiyati va ta’rifi.
3. Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi.
4. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari.
5. Ta’limning usullari.
6. Tarbiya usullari.

Uzbekistonda keyingi o‘n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga oid adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texno-logiya», «Ilg‘or pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar ko‘p uchrab turgani bilan ularning o‘zbek tilidagi maromiga yetgan ta’rifi hali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta’lim

texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Bu yerda, bugungi kunda, nima uchun xorijiy pedagogik uslublardan hisoblangan pedagogik texnologiyaning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha malakali kadrlarni va yuqori bilimga ega olimlarni yetishtirib kelgan sovet pedagogikasining an'anaviy uslub(metodika)lari mavjudku, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va kommunizm g'oyasidan kelib chiqib mafkuralashtirilgan joylarini o'zgartirib, ularga milliy tus berib foydalanaversa bo'lmaydimi? – degan mu-lohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik ja-moatchiligi aynan shu yo'lni tutgan. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddatga xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. Buning sababi quyidagilardir.

Birinchidan, ma'lum sabablarga ko'ra, ko'pgina sohalarda jahon hamjamiyati taraqqiyotidan orqada qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamalakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or ma'rifiy tadbirlardan foydalanishi zarur ekanligi.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiyani jadallashtirish yo'lida asosiy to'siq bo'lib kelayotgan an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisiga emas, balki nufuzli bilimlarning yagona manbaiga aylanib qolganligi.

Uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotgani va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi.

To'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi.

Beshinchidan, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berishning ilmiy usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa majmu yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilayotganligi.

Pedagogik texnologiya yuqorida sanab o'tilgan beshta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan pedagogik texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasi yaratilgan¹. Pedagogik jamoatchilikning birdan-bir vazifasi bu texnologiyani yaxshilab o'rganib, o'zining kundalik pedagogik amaliyotida qo'llashdir.

Pedagogik texnologiyaning tom ma'no va mazmunini bilish, uning asosida har bir fanning, har bir darsning loyihasini tuzib chiqish uchun majmular nazariyasini to'la egallab olish zarur. Chunki pedagogik texnologiya majmular nazariyasi qonuniyatlariga yuz foiz suyangan bo'lib, yangicha falsafiy tafakkurni va yangicha dunyoqarashni ifodalaydi.

Umuman texnologiya deganda, subekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan tizimli ta'sir natijasida subektda kerakli sifat o'zgarishi bo'lishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi.

Ushbu tushunchani o'quv jarayonidagi texnologik yondashuvga ko'chiradigan bo'lsak, bu – o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchi yo talabalarga, muayyan bir dastur asosida, maqsadga yo'naltirilgan tizimli ta'siri natijasida, ularda jamiyat uchun zarur va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni shakllantiruvchi ma'rifiy tadbir, desa bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganidan dastavval AQShda XX asrning 70-yillarida falsafaning bixiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi. Falsafadagi bixiviorizm degan oqim psixologiya ilmining tadqiqot ob'ekti inson tafakkuri emas, uning xulqi, fe'l-atvori

¹ Б. Зиёмуҳаммадов, III. Абдумаева. Илғор пелагогик технология: назария ва ама-лиёт. Абу Али ибн Сино. Т.: 2001.

deb biluvchi dunyoqarashga asoslangandir. Ya'ni bixiviorizm, psixologiya insonning aql-zakovatini emas, balki unga tashqaridan ko'rsatilgan ta'sirga javob tariqasida uning so'z va xatti-harakatida namoyon bo'luvchi xulqi va fe'l-atvorini o'rga-nadi, deb hisoblaydi.

Yer yuzi mamlakatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo'linib, sovuq urush avjiga chiqqan davrda sotsializm tarafdorlari bu ijti-moiy voqelikni mafkura nuqtai nazardan tan olmay. ko'p yillar davomida uni ko'r-ko'rona inkor qilib kelishdi.

XX asr 90-yillari boshida sotsializm nurab, sotsialistik davlatlar birin-ketin mustaqil bo'lganidan keyin O'zbekiston olimlari ham xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnatib boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda huquqiy demokratik davlat qurish uchun ta'lim-tarbiya ustuvorligi ta'minlanibgina qolmay, balki **ijtimoiy buyurtma** sifatida **butun jamiyatni pedagoglashtirish** yuzaga keldi. Bu jamiyatimizning har bir fuqarosini tarbiyashunoslik asoslari bilan qurollantirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik tadbirlar bilan ta'minlash zarur, deganidir.

Pedagogik texnologiyaning mamlakatimizning ta'lim-tarbiya sohasiga to'g'ri joriy qilinishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida «portlash effekti»ni berishi aniq. ya'ni:

- jamiyatimiz intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;
- jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi;
- insonni kamolot sari yetaklab, hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- fuqarolik jamiyati shakllanishini hamda huquqiy demokratik davlat qurishni ta'minlaydi;
- ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir etib, mamlakatimizda mavjud ijtimoiy muhit butunlay yaxshi tomonga o'zgaradi.

Pedagogik texnologiya shunday pedagogik tadbirki, agar uni pedagogik amaliyotga savodli tatbiq qilinsa, XXI asrda davlatimizda ta'lim sohasida tub o'zgarishlar yuz berib, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, uning yordamida talaba yoshlarda bilimga chanqoqlik, bilimlilik, hurfiylik, axloqiylik, milliy g'urur, vatanga muhabbat, baynalmilallik, insonparvarlik tuyg'ulari pog'onama-pog'ona shakllanadi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim akademik V.P. Bospalkoning fikricha, **«PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»².**

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: **«PT – avvaldan rejalashti-rilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir»³** – degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi.

«PT – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uing qayta tiklanuvchanligini kafolatlaydi hamda pedagogik jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», — deydi.

M. V. Klarin fikricha, **«PT — o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir»⁴.**

I. Ya. Larnerning fikriga ko'ra, **«PT o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli, anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi»⁵.**

V. P. Bospalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, **«PT — bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish(tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi(talaba)larga muayyan sharoitda**

² Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика. 1989. С. 192.

³ Монахов В. М. Аксиоматический подход к проектированию педагогической технологии. — Педагогика. 1997. № 6. С. 26.

⁴ Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе, М.: Знание. 1989. С.75.

⁵ Ларнер И. Я. Внимание о технологии обучения // Сов. Педагогика. 1990.г С. 139.

ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir»⁶.

Uzbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «PT — ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq pedagogik tadbiridir».

Bu ta'riflarni uzoq xoriyda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T.Sakamoto ta'rifini keltiramiz: «PT. — deydi Sakamoto, — bu majmuli fikr yuritish usulini iedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, iedagogik jarayonni muayyan bir majmuga keltirishdir».

Birlashgan Millatlar Tashkilotining nufuzli idoralaridan YuNESKOning ta'rifi bo'yicha. «PT — bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuli yondashuv usulidan foydalanishdir».

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi. so'zsiz. o'quv jarayoniga majmu sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni majmuni tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy uslub(metodika)lardan asosiy farqi uning to'la-to'kis majmular nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidadir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi uslublardan afzalligi, u ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuga keltirib, ta'lim natijalarini avvaldan belgilab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab majmuga keltirib turib, jarayon loyihasini tuzishidadir.

⁶ Сайдахмедов Н., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. Т.: 1999. 7—8-бтлар.

Uning an'anaviy usullardan keyingi farqi talabalarning o'zlariga berilgan bilimni yodlab aytib berishiga emas, balki ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida konkret harakatlarni bajarishga yo'naltirilganligidadir.

Pedagogik texnologiyaning boshqa ta'lim uslublaridan navbatdagi farqi uning yordamida o'quv jarayoni tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir.

Ilmiy asoslanib, yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi ham a'lo bo'lmasada yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagog olim, tajribali metodist yoki ilg'or tajribali moharatli o'qituvchilar tuzadi, shu bois ularning pedagogik mahorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Avvalgidek, «darsdan ko'zlangan maqsadga ob'ektiv sabablarga binoan yetib bo'lmadi» yoki «kutilmagan omillarga binoan dars buzildi» va shunga o'xshash gaplarga pedagogik texnologiyada o'rin yo'q.

Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan xususiyatlaridan va majmular nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqib, unga quyidagi kengaytirilgan ta'rifni beramiz.

Pedagogik texnologiya — bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi, aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmu sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlar bo'lgan o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ma'lum ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbir-dir.

Pedagogik texnologiya, umuman olganda, reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jarayoni o'quvchilarning tipik holatlardagi harakatlarni egallashiga yo'naltirilgan.

Pedagogik texnologiyadagi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'lak (modul)larga bo'linib, har bir bo'lagida o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan natijalar ko'rsatiladi. Ya'ni, o'quv materiallari dars maqsadidan kelib chiqib, modullarga bo'lingan bo'ladi, Har qaysi modulda yetishish kerak bo'lgan

maqsadlar va shunga mos ravishda test savollari tuziladi. O‘quv jarayoni aniq savollarga konkret javoblar topish asosiga qurilgan bo‘lib, savollar va javoblar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘lishi natijasida bir butunlik-(majmu)ni tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiyada reproduktiv usul qatorida izlanuvchi-tadqiqot va boshqa usullar ham ishlatiladi.

Mustaqil O‘zbekiston erkin fuqarolarini shakllantirishda xalqxo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ma‘lum bilim hajmiga ega mutaxassis hamda turli muammolarga duch kelganda mustaqil izlanib, ularni hal qilib ketadigan tadbirkor kishilar kerak. Bunday shaxslarni tarbiyalashda tipik harakatlarga reproduktiv va nostandart vaziyatlardan yo‘l topib chiqib ketishga o‘rgatuvchi tadqiqot usullari mos tushadi. Bizga zarur bo‘lgan uslub ushbu ikki an‘anaviy usullar omixtasidan hosil bo‘lib, texnologiyalashtirilgan integrativ uslubdir. Uni pedagogik texnologiya deyilmoqda.

O‘quv jarayoni texnologiyasi alohida olingan bigga darsga, bitta mavzuga, yoki predmetning bir qismiga va butun o‘quv predmetiga tuzib chiqilishi mumkin.

Pedagogik texnologiyani yaratish tamoyillarining birinchisi — muayyan o‘quv predmetidan kutilgan umumiy maqsadni belgilab olish; ikkinchisi — umumiy maqsaddan kelib chiqib, muayyan darsni yoki butun o‘quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar tizimini aniqlab olish; uchinchisi — modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo‘yicha test savollarini tuzib chiqish; turtinchisi — maqsadlar aniq bo‘lib, test savollari tuzilganidan keyin, maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatishning aniq joylarini belgilab olish.

Ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida. avval aytganimizdek, majmu yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy aloqadorliklarga va fanlararo bog‘liqliklarga alohida e’tibor qaratiladi. Bu pedagogik texnologiyaning beshinchi tamoyili hisoblanadi.

Ta’lim usullari deb, o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasida nazariy bilimlar berish va ularni olish maqsadida amalga oshiriladigan o‘zaro aloqalarni tartibga soluvchi pedagogik tadbirlarga aytiladi.

O'qitish usullari o'quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli usullarsiz ta'limiy faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Usullar nazariy bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so'z orqali ifodalash va ko'rgazmaliga bo'linadi.

Nazariy bilimlar mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilish faoliyatiga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish – illyustrativ, reiroduktiv, muammoli bayon; xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot usullari qo'llanishi mumkin.

Ta'lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qullashni nazarda tutadi.

Ta'limning og'zaki usullariga: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar kiradi. Bu usullarni qo'llanishda o'qituvchi og'zaki nutq vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglash, eslab qolish orqali uni faol qabul qiladilar.

Ma'ruza — bilimni so'z bilan ifodalash usullaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish. umumlashtirishning murakkabligi bilan hikoyadan ajralib turadi.

Ma'ruzalar orqali asosan umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi. Ma'ruza rejasini yaxshi o'ylash va uni texnologiyalashtirish yuqori nedagogik samara beradi. Rejadagi modullarning barchasida, ularning maqsad, yakun va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. Ma'ruza shunday sur'atda o'qiladiki, o'quvchilar uning muhim joylarini yoza olsinlar. Shuning uchun ham o'qituvchi yoki iedagog ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratishi, zarur bo'lsa yozib olishlarini yengillashtirish uchun takrorlashi yoki ko'rgazmali quroldan foydalanishi lozim. Ma'ruza zerikarli bo'lmasligi uchun hamda o'quvchilarning fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi natija beradi.

Namoyish qilish usullari, odatda, qurilma, asboblari, tajribalar, turli tipdagi preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish usuliga, shuningdek, diafilm, kinofilm ko'rsatish ham kiritilgan. Ko'rgazmali usullarni qo'llashda ko'rsatish, yaxshi ko'rinishni ta'minlash, o'tkazilgan namoyishni muhokama qilish va hokazo tadbirlardan foydalaniladi.

O'quv jarayonida diafilm va kinofilmlardan foydalanishga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi uni oldindan ko'rib olgan bo'lishi, namoyish qilish davomida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan savollarni tuzib chiqqan, darsning tegishli lahzalarida ko'rsatiladigan parchalarni ajratib olgan bo'lishi shart.

Ta'limning ko'rgazmali usullarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular so'z bilan ifodalash usuli bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'liqligi shundaki, u ob'ektiv borliqdagi qonuniyatlar amaliyotda birgalikda qo'llanishini taqozo etadi.

Shunday qilib, og'zaki va ko'rgazmalilik usullari aloqadorligining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato bo'lar edi, chunki ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri, shuningdek o'quvchilar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, har bir konkret holatda ularning eng oqilona qo'shiluvi tanlanadi.

Ta'limning muammoli-qidiruv usuli asosan "o'quvchi-talabalarning bilimni mustaqil ravishda izlab topishiga yo'naltirilgan.

Bu usuldan foydalanishda o'qituvchi, avvalo, muammoli vaziyat yara-tadi, savollar qo'yadi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi. xulosadarning to'g'riligini tasdiqlaydi. O'quvchilarning muammoli vaziyatni oldingi bilim va tajribalarga asoslasib hal qilishi yo'llari to'g'risida takliflarini aytadi, oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, hodisalarning sabablarini aniqlaydi, ularning kelib chiqishini tushuntiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu usul o'quvchilarning bilimga qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Ta'limning muammoli-qidiruv usullarida bilim berish so'z orqali ifodalash. ko'rgazmali va amaliy usullar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda o'quv materialini muammoli bayon qilish usulini qo'llash, amalda qidiruv ishlarini bajarish, hatto tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

O'quv materialini muammoli-qidiruv usuli yordamida o'tish muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish. o'quvchi fikrini o'z ortidan ergashtirish, uni faolroq qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Evristik va muammoli-qidiruv usullari ham o'quvchi-talabalarning mustaqil ravishda bilim topishiga yo'naltirilgan. Bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan savollar majmuini qo'yadi. O'quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytanlari to'g'ri ekanligini mustaqil isbotlashga harakat kiladilar. Shu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljishni amalga oshiradilar. Agar evristik suhbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli-qidiruv suhbatida o'quvchilar muammoli vaziyatning butun bir tizimini yechadilar. Shuning uchun ham bu suhbatlarning farqi shartli va faqatgina muammoli vaziyatda qo'llanish tadbirlariga taalluqlidir.

Tarbiya usullari deganda o'quvchi-talabalarga berilgan nazariy bilimlarni ko'nikmaga aylantirish maqsadida ularni amaliy harakatlarga o'rgatuvchi o'qituvchi va o'quvchi orasida kechadigan tadbir va choralar majmui tushuniladi. Bunda quyidagi faoliyatlar ko'zda tutiladi: vazifa(maqsad)ni quyish, uni bajarish usullarini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun ta'lim jarayoniga o'zgarishlar kiritish.

Amaliy usullarning birinchi guruhiga yozma mashqlar — ona tili va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqni bajarish mashqlari kiradi. Mashq davomida o'quvchi olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llab, ularni ko'nikmaga aylantiradi.

O'quvchilarning o'quv jarayoni davridagi burch va mas'uliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayoni bilishga qiziqishgina emas, balki bir qancha boshqa omillarga ham tayanadi. Bu omillar o'quvchilarga uqitish va o'rgatish jarayonidagi muqarrar qiyinchiliklarni bartaraf etish, ularni yengishdan quvonish va qoniqish tuyg'usini baxsh etadi.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar axloq normalari, fanlar bo'yicha bilimlarni baholash mezonlari, ichki tartib-qoidalar, umumta'lim maktablari, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurti nizomlari bilan belgilanadi. Shuni unutmaslik kerakki, o'quv mas'uliyatini rag'batlantirish o'quvchilarga qo'yiladigan talablarni bajarishga o'rgatish usullari bilan birgalikda olib borilishi shart. Chunki bunday ko'nikmalar bo'lmasligi intizomning buzilishiga va qoloqlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Shu xususda og'zaki savol-javob usuli an'anaviy usullardan biri hisoblanadi. Og'zaki savol-javob o'quvchilarni hozirjavoblikka tayyorlaydi. Og'zaki savol-javob yakka-yakka va yoppasiga so'rash orqali amalga oshiriladi. Yakka o'quvchidan so'ralganda, o'qituvchi o'zaro mantiqiy bog'langan savollarni tanlaydi va ularni butun sinf yoki auditoriya oldiga qo'yadi, o'quvchilarni javob berishda faollikka chaqiradi.

Og'zaki savol-javob o'quvchilarni so'zamollikka, ravon so'zlar ishlatib mantiqiy javob axtarishga, shakllangan bilimlarni so'zlar bilan ifodalab, bu bilimga o'zida ko'nikma hosil kilishga o'rgatadi hamda og'zaki nutq madaniyatini o'stiradi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar nutqidagi ba'zi nuqsonlarni ustalik bilan to'g'rilashdan iborat. Qo'pollik bilan berilgan tanbeh o'quvchilarda so'zlash ishtiyoqini pasaytiradi. Maqtov, dalda berish kabi pedagogik tadbirlar o'ziga ishonch uyg'otadi, guruhda musobaqaviy ko'tarinkilik ruhini yaratadi, guruh jamoasini bir-biri bilan jipslashtiradi. Shunga qaramasdan, og'zaki savol-javobning kamchiligi ham bor. Kamchiligi shuki, unga barcha o'quvchilarni yuz

foiz jalb qilib bo'lmaydi. Undan tashqari, ayrim tortinchoq o'quvchilar boshqalar oldida so'zlashga iymnadilar.

Ko'p hollarda nazoratning yozma shakli talabalar ichki sir-asrorlarini, kechinmalarini, yashirinib yotgan iste'dodlarini ochish imkonini beradi. Bu usulda yozma nazorat, insho, bayon, diktant, yozma sinov o'tkazish mumkin.

Keyingi yillarda yozma insholarning dasturlangan shakli (test sinovi va boshqalar) keng qo'llanilayapti. Bunda o'qituvchi savollar ro'yxatini tuzib, ularning har biriga mumkin bo'lgan javoblarni taklif qiladi, bu javoblarning bittasi to'la javob bo'ladi. O'quvchilarning vazifasi – javoblar ichidan nisbatan aniq va to'la javobni tonish.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Pedagogik texnologiyani ta'riflang;
2. Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligini ko'rsatib bering;
3. Grammatik mavzu bo'yicha dars ishlanmasini bajaring;

Mustaqil ish topshiriqlari:

“Sinkveyn” va “charxpalak” usullarida fe'l boblariga oid ishlanmani bajaring.

Asosiy adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov. Komillikka eltuvchi kitob. T.2006y.
2. B.Farberman. Progressivnie pedagogicheskie texnologii. T.1999g.
3. V.A.Semyonov. Pedagogicheskaya psixologiya. Sank-Peterburg. 1998g.
4. A.Sidenko. Toxnologizatsiya opita: vozmojna li ona? Narodnoe obrazovanie №1-2.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. B.Ziyomammedov, M.Tojiev. Pedagogik texnologiya zamonaviy o'zbek milliy modeli. T.2009y.
2. N.Postalyuk. Tvorcheskiy stil deyatelnosti: pedagogicheskiy aspekt. Iz-vo Kazanskogo universiteta. 1989g.